Bizning jamiyatimizda madaniyatli va ma'rifatli insonni tarbiyalash muammosi juda dolzarb bo'lib kelgan hamda ma'naviy va axloqiy jihatdan mukammal inson tarbiyasi asosiy vazifa hisoblanadi. Darhaqiqat, mamlakat iqtisodiyoti, siyosati, milliy xavfsizligi va raqobatbardoshligi ko'p jihatdan fuqarolarning madaniyati darajasiga bog'liq.

Zamonaviy ta'limda barcha tendentsiyalar va innovatsiyalar makonida shaxsni shakllantirishning muhim va ajralmas bosqichi sifatida kompetent yondashuvni alohida

ko'rsatish lozim. Asosiy ta'lim kompetentsiyalariga alohida e'tibor qaratish zarur hisoblaymiz.

Texnologiya fani darslarida yosh avlodni jamiyatda hayotga tayyorlash, ularning moddiy buyumlar tayyorlashlarida aniqlik va sifat tushunchalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Metrologiya - o'lchovlar bilan shug'ullanadigan, ishlab chiqarish va uni boshqarish jarayonida ishonchlilik va aniqlikni kafolatlaydigan ilmiy va aniqlikni kafolatlaydigan fanidir. Texnologiya darslarida o'quvchilarga ushbu fan asoslari, shuningdek metrologiyada ishlatiladigan vositalar bilan tanishish imkoniyati beriladi. Metrologiyani maktab texnologiya fani darslarida o'rganish fan, texnologiya va ishlab chiqarish sohasi mutaxassislari uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktab o'quvchilariga metrolog bu - o'lchovlarning nazariy, amaliy va qonuniy asoslari bilan shug'illanuvchi mutaxassis ekanligini tushuntirish qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo metrologlar qanday o'lchovni, ularning ishi kundalik hayotimizga qanday ta'sir qilishini va nima uchun bu muhim ekanligini, bu jarayon juda mehnat talab qilishini, uni maktabdayoq o'rganishni boshlashlari kerakligini tushuntirish muhimdir.

O'quvchilarni metrologiyaga kirishlari va ushbu fan sohasiga qiziqishlarini uyg'otish uchun eng mos keladigan fan bu umumta'lim maktablaridagi Texnologiya fani va unda o'tiladigan mashg'ulotlar hisoblanadi. Bu jarayonda metrologik va texnologik bilimlar muhimdir.

Metrologiyani ularga maktabda o'rganishning afzallik tomonlari deb quyidagilarni keltirish mumkin:

- o'quvchilar maktab o'rindiqlaridayoq o'lchov vositalaridan foydalanishni o'rganishlari mumkin. Aniq o'lchash malakalari nafaqat ularning kasb egallashlarida, balki oddiy hayotiy ehtiyojlarida ham zarurdir. Masalan, savdo qilish shaxobchalarida maxsulot olish yoki atmosfera bosimi, harorati kabi kattaliklarni o'lchashlarida;

- o'quvchilarni fizik hodisalar va qonuniyatlarni yaxshi tushunishlari, shu bilan birga ularni mantiqiy rivojlantirishlari uchun xizmat qiladi. Bu ularni turli masalalarni echa olishlariga, o'lchov vositalarida ishlash va aniq o'lchash malakalarini shakllanishiga imkon beradi;

- metrologiya uni o'rganuvchilarga bizning kurrimiz duch kelayotgan ekologik muammolarni yaxshi tushunib etishlariga yordam beradi. Masalan, ular suv va havoni

ifloslanganlik darajasini maxsus qurilmalardan foydalanib o'lchash, buning natijasida olingan ma'lumotlardan ekologik muammolarni hal etishda foydalanishi;

- metrologiya o'quvchilarda fan va texnikaga hurmat bilan munosabat qilishlarini shakllanishiga xizmat qiladi. O'quvchilar o'quv mashg'ulotlari jarayonida metrologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlarni bilishlari, shuningdek, bu yutuqlardan nafaqat kundalik hayotlarida, balki iqtisodiyotning turli sohalarida ham foydalanishlari mumkin.

Texnologiyalar darslarida metrologiyani o'rganishning asosiy jihatlaridan biri bu o'lchash vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdir. O'quvchilar o'lchovni to'g'ri va aniq olib borishni o'rganadilar, shuningdek metrologiya bilan bog'liq bo'lgan asosiy tushunchalar va shartlarni tushunish imkoniga ega bo'ladilar. Ular turli xil qurilmalar bilan tanishadilar va ulardan to'g'ri foydalanishni o'rganadilar.

Bundan tashqari bu ulardagi amaliy ko'nikmalarni shakllanishiga yordam beradi. O'quvchilar o'zlarining o'lchov qurilmalarini yaratishlari, tajriba o'tkazishlari va xulosa chiqarishlari mumkin. Olingan aniq o'lchashlar natijalarini turli xil buyumlar tayyorlash hamda ularni loyihalarini bajarishda muhim ekanligini tushunib etishlariga yordam beradi.

Muhim jihati standart va me'yoriy hujjatlar talablari bilan tanishish hisoblanadi. O'quvchilar maxsulotlarni tayyorlashda standartlar talablari, shuningdek, ularni attestatsiyalash va sertifikatlash tartiblarini bilib olishadi. O'zlarining professional faoliyatlarida standart va aniq normalarga bo'y sunishlari, sifatni ta'minlash va ishonchli ishlash zarurligini tushunib etadilar.

Bularning barchasi nafaqat talabalarning texnik bilimlarini, balki mantiqiy fikrlash, olingan bilimlarni tahlil qilish va amalda qo'llash qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu mustaqil ishlash, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Zamonaviy pedagogika texnologiyani o'qitish mazmuniga o'ziga xos: moslashuvchan, mobil bilimlarni shakllantirish, shuningdek ularni noodatiy vaziyatlarda qo'llay olish kabi aniq talablarini qo'yadi. Darslarda kompetent yondashuv ushbu pedagogik muammoni hal qilishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, texnologiya fani mashg'ulotlarida metrologiya faniga oid bilimlarni o'rgatish kelajakda malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun katta zamin yaratadi va u amaliy ahamiyatga ega. Mashg'ulotlarni shunday tashkillash nafaqat

o'quvchilarning bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, balki ularda zamonaviy texnologik makonda zarur bo'lgan muhim ko'nikma va malakalarni ham shakllantiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uluhanov, I., & Ubaydullayev, S. (2024). Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida texnologik ta'limning uzviyligini ta'minlash konsepsiyasi mazmuni. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(12), 455-474.
2. Uluxanov, I. (2024). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini tayyorlashda kasbiy tayyorgarlik tushunchasi. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(12), 84-86.
3. Uluxanov, I., & Dehqonboyeva, S. (2024). Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisini "yashil iqtisodiyot" tushunchasini anglashga o'rgatish masalasi. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(12), 87-91.
4. Ulukhanov, I., & Khusayinova, G. (2024). Digitalized learning and its effectiveness in technological education. *Science and innovation*, 3(B4), 236-243.
5. Tokhtakhojaevich, U. I., Abdurasulovna, K. G., & Kadyrovich, U. S. (2022). Pedagogical technologies in the formation of creative competence in the educational process. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 5, 22-28.
6. Улуханов, И. Т., & Константинова, А. Ф. (2016). Методика работы на установке, определяющей оптические свойства кристаллов. In *Современные инновации в науке и технике* (pp. 174-176).
7. Улуханов, И. Т., & Имомов, М. Х. (2017). Исследование точности экспериментальной методики. In *Молодежь и XXI век-2017* (pp. 35-36).
8. Umarov K.M. Ulukhanov Ibrokhim Tokhtakhojaevich. Ways to solve environmental education and education issues in technology science. publishing centre of Finland. *Fars Int J Edu Soc Sci Hum Journal* article. 2022/10/12. 799-805.

## **MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA KADRLAR VA MUTAXASSISLAR MIGRATSIYASI**

**Ilmiy rahbar: Viktor Alimasov,**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti professori,  
falsafa fanlari doktori

**Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li,**

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish  
hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasidagi kadrlar va mutaxassislarning migratsion jarayonlari haqida atroflicha ma'lumot va fikrlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniyat va san'at sohasi, migratsion jarayon, qo'nimsizlik, sayyor truppa, ansambl, ijodiy kollektiv, teatr, mehnat migratsiyasi.

**Abstract:** This article provides detailed information and opinions about the migration processes of personnel and specialists in the field of culture and art.

**Keywords:** the field of culture and art, migration process, dissatisfaction, traveling troupe, ensemble, creative collective, theater, labor migration.

Hozirgi kunda madaniyat va san'at sohasida kadrlar qo'nimsizligi bir qator ijtimoiy omillar bilan bog'liq ularga:

- ✓ malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj;
- ✓ Ish sharoitining ko'ngildagidek emasligi;
- ✓ Kadrlarning nokoppitentligi;
- ✓ Kasb-kor malakasining joylarda talab yetilmasligi;
- ✓ maoshning yuqori emasligi kabi masalalar kiradi.

Kadrlar qo'nimsizligi tufayli madaniyat va san'at sohasidagi oliy ma'lumotli kadrlar 11-12% atrofidadir. Ularning 37-38%ni esa o'rta maxsus bilimli xodimlar tashkil etadi. Demak, madaniyat va san'at sohasidagi mutaxassislarning deyarli yarmi maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslardir. Bu xol kadrlar qo'nimsizligini ko'rsatibgina qolmay, mutaxassislar migratsiyasidan ham dalolat beradi [1].

Mutaxassislar migratsiyasi deganda madaniyat va san'at sohasidagi mutaxassislarning shahardan qishloq tumanga borishi yoki qishloq joylaridagi san'at xodimlarining shaharlarga jalb etilishi nazarda tutiladi [2]. Shu paytgacha mutaxassislar migratsiyasi deyilganda shaharlik madaniyat va san'at sohasi xodimlarining qishloqlarda o'tkaziladigan madaniy ommaviy tadbirlarga jalb etilishi nazarga tutilgan. Masalan, tuman va qishloqlarda o'tkaziladigan ommaviy oilaviy tantanalarga, shaxs yubiliylariga, nikoh to'ylariga shaharlik san'atkorlar jalb etilgan, ular ushbu tadbirlarni uyishtirish rejalashtirish va buyurtmachilarga manzur tarzda tashkil etib berish vazifalarini bajarishgan. Buni vaqtinchalik migratsiyas deb, atasa bo'ladi. Vaqtinchalik migratsiya shaharlik san'atkorlarni tuman va qishloqlarga borib, ommaviy madaniy tadbirlarni uyushtirishning samarali yo'llaridan biri bo'lib kelmoqda.

Biroq keyingi paytlarda qishloqdagi san'atkorlarni yoki folklor-etnografik ansambllarni shaharlardagi ko'riklarga, tadbirlarga va yubiliylarga jalb etish, tajribasi shakllanmoqda. Masalan, "Boysun", "Shalola", "Besh qarsak", "Gulyor", "Omonyor", "Gulchehralar", "Doston", "Besperde", "Orzu", "Yor-yor", "Chavgi", "Mohi sitora" va boshqa ko'plab ansambllar shularga jalb etiladi. Aynan shu paytlarda, ular tadbirlar tashkil etiladigan joylarda turib qoladi, xatto haftalab, o'n kunlab yoki oylab shaharlarda yashab qoladi. Ushbu davr ichida ular shahar madaniyati va urbanizatsiyasi bilan tanishadi, o'zining ashula va raqslari bilan, shahar aholisiga madaniy xizmat qiladi. Bu ham vaqtinchalik migratsiyasiga kiradi. Bizning fikrimizcha migratsiya uzoq muddatli, cheklangan muddatli, qisqa muddatli va uch kun, bir hafta, bir oy davom etadigan ko'chish jarayonlaridir.

Demak, sayyor trupplalar, ansambllar, ijodiy kolektivlar ham vaqtinchalik migratsiya orqali madaniy xizmatlar ko'rsatadi. Migratsiyani ko'chib ketish tarzida tushunmaslik kerak, u kasb-korni bajarish bilan bog'liq bo'lgan, vaqtincha va qisqa muddatga ko'chishdir.

Madaniyat va san'at sohasida qisqa muddatli migratsiya ko'p uchraydigan oddatiy holdir. San'atkor va ijodkorlar o'z funktsiya va vazifalarini bajarish uchun turli hududlarga borib, aholiga madaniy xizmat ko'rsatadi. Bu ularning qisqa muddatli migratsiyasiga misol bo'la oladi.

Madaniyat va san'at sohasi xodimlari va mutaxassislari ba'zan oylab gastrollarga chiqadi, bu paytda ular mehmonxonalarda turishsada mahalliy aholining turmush madaniyati, laxjalari, urf-odatlarini, to'y va bayramlari, fikrlash tarzi bilan tanishadilar. Shu bilan birga, ular umummilliy harakterga ega bo'lgan, madaniyat va san'at boyliklarini mahalliy aholi o'rtasida targ'ib etadi. Masalan, respublika O'zbek Milliy Akademik drama teatri jamoasi 2023-2024-yillarda gastrollarda bo'lgan, mahalliy joylarga chiqib, nafaqat spektakllar ko'rsatgan, shuningdek madaniy ommaviy harakterga ega bo'lgan ijodiy uchrashuvlar o'tkazgan. Shuningdek, Muqimiy nomidagi O'zbekiston Davlat musiqali teatri ham 2023-2024-yillarda gastrollarda bo'lgan. Mazkur tadbirlarni migratsiya deyish no o'rin, biroq ularda migratsiyaga xos bo'lgan elementlar borligini inkor qilib, bo'lmaydi.

*Birinchi*dan, ularda mehnat migratsiyasiga xos bo'lgan jihatlari bor. Mehnat shartnomasi asosida hududlarga chiqish va haftalab, hatto oylab hududlarda yashashga, ishlashga va madaniy funksiyalarni bajarishga to'g'ri keladi. Mehnat shartnomasida odatda ushbu shart-sharoitlar qayd etiladi.

*Ikkinchi*dan, mehnat migratsiyasida manfaatdorlik va buyurtmachi talabini bajarish zarur bo'ladi. Ushbu talab, madaniyat va san'at sohasidagi gastrollarda o'z aksini topadi.

*Uchinchi*dan, madaniyat va san'at xodimlari ba'zan xalqaro migratsiyaga xos funksiyalarni bajarishadi. Masalan, O'zbekiston Prezidentining PQ-64-son qaroriga asosan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatri 2022-2026-yillarga mo'ljallangan rejaga binoan 2022-yildan buyon xorijiy gastrol safarlarini tashkil etib kelmoqda. Jumladan, 2022-yilda Koreya Respublikasining Tegu, Pusan, Kochang, Pxyontxek shaharlari bo'ylab hamda Ozarbayjon Respublikasi Boku shahrida, shuningdek, 2023-yilda Xitoy Xalq Respublikasining Pekin shahrida, Rossiyada, Qozog'iston Respublikasining Astana shahrida, Belarus Respublikasining Minsk shahrida hamda 2024-yilning 13-14-mart kunlari Qirg'iz Respublikasining Bishkek shahrida xorijiy gastrol safarlari amalga oshirildi [3]. Shuningdek, 2024-yilning 13-apreldan 10-noyabr gacha qadar Turkiyaning 16 ta (Adana, Shanliurfa, Bursa, Samsun, Trabzon, Furgon, Nevshehir, Erzurum, Chanakale, Gastroantep, Anqara, Konya, Istanbul, Diyarbakir, Izmir, Antalya) hududida bo'lib o'tayotgan "Türkiye Kültür Yolu Festivali" Xalqaro san'at festivali doirasida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta

teatri ham mehmon jamoa sifatida ishtirok etishdi. Ular, ushbu davlatlarda bo‘lib, xorijliklarga madaniy xizmatlar ko‘rsatgan, spektakllar namoyish etgan. Xalqaro migratsiya talablariga muvofiq san‘atkorlarimiz xorijga chiqib, u yerlardagi madaniy meros va san‘atdagi innovatsion usullar bilan bevosita tanishgan, gastrol paytida tajriba almashish va o‘zbek milliy opera va balet san‘atini xorijda targ‘ib etish, tashqi migratsiya talablaridan xolis bo‘lishi mumkin emas edi. Ijodiy gastrollar qisqa vaqtli migratsiyalarga kiradi. Xatto ularni madaniy-ijodiy migratsiya deb, atasa ham bo‘ladi.

2022 – 2026 yillarda milliy, jahon opera va balet asarlarini sahnalashtirish bo‘yicha alohida reja tasdiqlanib, bugungi kunda 6,6 mlrd so‘m mablag‘ hisobidan “Alisher Navoiy”, “Maskarad bali” operalari, “Jaloliddin Manguberdi” baleti sahnalashtirildi. Har yili “Yosh vokal ijrochilari”, “Yosh balet ijrochilari” va “Dirijor, rejissyor va baletmeysterlar” respublika ko‘rik-tanlovlari o‘tkazilishi belgilandi va o‘tkazilmoqda. Bundan tashqari, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrida 2022 yilda “Opera va balet san‘ati” xalqaro festivali o‘tkazildi [4].

Yuqoridagi ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda, madaniyat va san‘at sohasidagi migratsion jarayonlar tom ma‘nodagi migratsiya emas, ularda qisqa vaqtli migratsiyaga xos belgilar mavjud. Sohamizdagi kadrlar qo‘nimsizligi ham, aslida mana shu omil bilan bog‘liq. Bugun madaniyat va san‘at sohasi xodimlari mobil, harakatchan bo‘lishi zarur. Bozor iqtisodiyotining bu talabi esa, ularni turli hududlarga borib, u yerlarda yashab, haftalab, oylab madaniy xizmatlar ko‘rsatishga majbur qiladi. Demak, madaniyat va san‘at sohasidagi qisqa vaqtli migratsion jarayonlarni salbiy voqelik sifatida baholash mumkin emas.

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:***

1. Alimasov V, Samiyev B. Madaniyat va san‘at sohasida kadrlar qo‘nimsizligi va mutaxassislar migratsiyasi. “Ijodiy parvoz” gazetasi. 2024-yil noyabr № 11 (138) 3-bet.
2. Globallashuv sharoitida migratsion jarayonlarning mafkuralar va madaniyatlarga ta’siri: muammo va yechimlar [Matn] // -Sirdaryo: Ziyο Nashr-Matbaa, 2024. -344 b.
3. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat akademik katta teatrining Turkiyadagi gastrol safari davomida “Türkiye Kültür Yolu Festivali” Xalqaro san‘at festivalida ishtirok etishi haqida PRESS-RELIZ. <https://gov.uz/oz/madaniyat/news/view/23341>.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-3

4. <https://t.me/madaniyatvazirligi>.
5. Samiyev, Baxtiyor. "INNOVATIVE DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART." Multidisciplinary Journal of Science and Technology 4.5 (2024): 522-525.
6. Baxtiyor, Samiyev. "THEORETICAL ANALYSIS OF THE CURRENT ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS IN UZBEKISTAN." International Multidisciplinary Journal for Research & Development 11.05 (2024).

## HIKOYADA DAVR VA INSON MUNOSABATLARI TASVIRI

*Shukurova Bahor Boltayevna-Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti katta o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

[bahorshukurova1968@gmail.com](mailto:bahorshukurova1968@gmail.com)

**Annotatsiya.** Adabiy-badiiy jarayon taraqqiyoti, soʻz sanʼatining yangi davrga qadam qoʻyishi hikoya strukturasi shakl va mazmun jihatdan muayyan oʻzgarishlar yuz berayotganini koʻrsatadi. Bunday hodisa, shu jumladan, oʻzbek nasrida namoyon boʻlmoqda. Bunday evrilishlar, nafaqat hikoya, shuningdek, yirik epik shakl sanalgan roman badiiy qurilmasida ham koʻrinyapti. Zamonaviy oʻzbek hikoyachiligining keyingi bosqichlari, xususan, milliy Mustaqillik yillarida badiiy matn hududida tasvir obyektivligiga eʼtiborning birmuncha oshganligini koʻrsa boʻladi. Bunday ijodiy-poetik yangilanish Shukur Xolmirzayev, Erkin Aʼzam, Nazar Eshonqulning hikoyachilik borasidagi izlanish va tajribalarida ham koʻrinadi. Maqolada ayrim hikoyalar tadqiqi orqali kichik epik janr namunalarida inson obrazidagi asosiy xususiyatlar – uning shaxsiyati, ichki dunyosi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi faoliyati kabi koʻpgina omillar bilan bogʻliqligi haqida soʻz yuritiladi.

**Kalit soʻzlar:** hikoya strukturasi, tasvir obyektivligi, badiiy matn, Erkin Aʼzam, Nazar Eshonqul “Stupka”, “Aralashqoʻrgʻon”, “Maymun yetaklagan odam”.

Maʼlumki, soʻz sanʼatining barcha janrlarida inson hamisha markaziy oʻrinda turgan, hozir ham shunday tamoyil davom etmoqda. Badiiy adabiyotda, xususan, kichik epik janr namunalarida inson obrazidagi asosiy xususiyatlar – uning shaxsiyati, ichki dunyosi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi faoliyati kabi koʻpgina omillar bilan bogʻliq. Zamonaviy oʻzbek hikoyachiligining keyingi bosqichlari, xususan, milliy Mustaqillik yillarida badiiy matn hududida tasvir obyektivligiga eʼtiborning birmuncha oshganligini koʻrsa boʻladi. Bunday ijodiy-poetik yangilanish Erkin Aʼzam, Nazar Eshonqulning hikoyachilik borasidagi izlanish va tajribalarida ham koʻrinadi.

Yozuvchi Erkin Aʼzamning “Stupka”, “Aralashqoʻrgʻon”, Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” kichik epik asarlaridagi inson tasvirida bunday yangicha harakat koʻzga tashlanadi. Bu oʻrinda koʻrilayotgan muammoni “Stupka” hikoyasi misolida koʻrib chiqishga harakat qilamiz.

Bu hikoyaning asosiy personaji – Marina ismli sovet davrida Voronejdan o‘zbek yurtiga “baynalminal” tilni o‘rgatish uchun muallim sifatida yuborilgan ayol. U Arslon degan “arslondek devqomat, ko‘kragi baland, errayim, chapani” yigitga turmushga chiqadi. Yigit aslida ammasining qiziga ko‘ngil qo‘ygan, amma nima uchundir unga bu qizni turmushga bermaydilar. Shu sabab keyin ham baxti chopmay, ancha vaqt bo‘ydoq yashab yuradi. Oxir-oqibat, o‘qituvchilik qilib yurgan va o‘ziga “royishroq” tuyulgan rus qizi (Marina)ga to‘ysiz uylanib, yashay boshlaydi. Hikoyada yozilganidek, “nomusga qolgan ota bir tovoq osh bilan ularni musulmonchasiga nikohlab qo‘yadi”<sup>1</sup>. Bu sovet mafkurası muttasıl targ‘ib etib doımo rag‘batlanib turgan “millatlararo oila” edi. Bunday munosabat yoxud oila Oybekning “Qutlug‘ qon”, Sharof Rashidovning “Bo‘rondan kuchli”. Asqad Muxtorning “Po‘lat quyuvchi” poemasida tasvirlangan. Aslida bunday aloqa-bog‘lanishlar nafaqat siyosiy-mafkuraviy, shuningdek, axloqiy-ma‘naviy nuqtayi nazardan inkor etilmagan. Bag‘rikeng va olijanob xalqimiz o‘zga yurtlardan kelib, milliy xonadonlarga kelin bo‘lib tushgan o‘zga tilli xotin-qizlarni o‘z davrasiga qo‘shgan, ularga kamsitish va begonalik bilan qaralmagan. Bunday ayollarning ko‘pchiligi sharqona turmushga ko‘nikib, o‘zbeklashib ketishgan, ulardan iste‘dodli va millatimiz korıga yaraydigan azamat yigitlar, dilbar va sarishtali qizlar tug‘ilgan. Biroq, yuqorida bayon etilgan hollarga qaramay, soxta mafkura targ‘iboti va siyosiy maqsadlar asosida tashkillashtirilgan bunday nikohlar bevosita yoxud bilvosita shaxs fojialarını ham yuzaga keltirgan.

Erkin A‘zam hikoyasida mana shunday fojialardan quyidagilar tasvirlangan:

**1. Milliy muhitdan uzilish fojiasi.** Asar bosh qahramoni Marina bir guruh tengdoshlari qatorida davr siyosati targ‘ibi va da‘vati tufayli O‘zbekistonning chekka tumanlaridan biriga “baynalminal” tilni mahalliy aholi orasida yoyish maqsadida yuborilgan. Tabiiyki, u shu joyning shart-sharoitlari, imkoniyatlari doirasida yashay boshlaydi. O‘zbek yigitiga turmushga chiqadi, “sariq atlasdan ko‘ylag-u lozim kiyib, binoyidek yanga bo‘lib ketdi”<sup>2</sup>. Bunday qaraganda, uni o‘z baxtini topdi, deb hisoblash mumkin. Maktabda muallima, qishloqdoshlar orasida hurmat-e‘tiborga ega. Ammo eri dunyodan o‘tib, nafaqaga chiqqach, o‘zini yolg‘iz-notavon seza boshlaydi. Ba‘zan tushlariga bolaligi, yoshligi o‘tgan vatanini, unda o‘tgan umri, yurtdoshlarını eslay

<sup>1</sup> Эркин Аъзам. Шовқин. Роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.262.

<sup>2</sup> Эркин Аъзам. Шовқин. Роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.262

boshlaydi. Garchi yangi muhiti unga, u esa bu joylarga ko‘nikkan bo‘lsa-da, ona yurt sog‘inchi keksa ayolga azob berayotganini kitobxon sezib turadi. Asarda bu tuyg‘uning sabablari va boshqalar haqida muallif tomonidan hech gap aytilmagan. Shunga qaramay, badiiy matnning ruhi, badiiy konsepsiyasi ishoralari keksayayotgan ayol qalbida kuchli og‘riq bo‘lib tug‘yon urayotgani ayonlashadi. U dugonasi Lena bilan hasratlashayotganda bu haqda shunday deydi:

“Tug‘ilgan yurtini kim sog‘inmaydi. Lekin sog‘inganda, borganda nima? Chol-u kampir allaqachon oyoq uzatib bo‘lgan; birgina singlisi bor edi, Nastya. U ham eridan ajralib, chet ellik bittasiga ilashib ketgan. Portugaliyada yashaydi – yo‘q hisobi endi”.<sup>3</sup> Bu mulohazalarda vatandan uzoqlikkina emas, vatansizlik fojiasi ham aks etadi. Qahramonning singlisi yurtini butunlay tark etib, Portugaliyada yashayotgan ekan, uni endi yo‘q deb hisoblasa bo‘ladi. Vatan inson tug‘ilib o‘sgan joygina emas, undagi qardoshlik rishtalari, yaqin odamlarning mustahkam ittifoqi demakdir. Shunday rishtalar va ittifoq bo‘lmas ekan, Vatan ham yo‘q. Marina fojiasining o‘nglanmasligi sababi shundaki, u endi o‘zi sog‘ingan Vatanga qaytib borishi keraksizligini ham tushunadi.

Hikoyada taqdiri Marinaga o‘xshash va yaqin bo‘lgan Lena degan rus ayoli voqea tizimida ishtirok qiladi. Uning dugonasidan farqli ravishshda eri hali tirik, ikki o‘g‘li va qizi bor, roviy qayd etganidek, “obod-orasta hovlisi, yashnab turgan bog‘i”<sup>4</sup> bor. Shunga qaramay. bu ayol ham o‘zini “sho‘rpehana” deb hisoblaydi. “Men bechoraning boradigan manzilim ham yo‘q, sog‘inadigan kishim ham. Yetimxonada o‘sgan bir benavo bo‘lsam”<sup>5</sup>, - deydi u. Chindan ham Marinada boy berilgan bo‘lsa-da Vatan, vafot etib ketgan esa-da, sog‘inadigan ota-ona yodi bor. Lena esa na ota-onasi, na tug‘ilgan manzilini biladi. U ham o‘z milliy muhitidan uzilgan, bu yo‘qotishni hatto hozirgi oilasi ham to‘la-to‘kis bosa olmasligini yurak-yurakdan his qiladi. Vatan va ajdodsizlik uning fojiasidir.

**2. Milliy muhitga bog‘liq ravishda ona tilining tabiiy muhitidan mosuvollik fojiasi.** Hikoya qahramoni yoshlik chog‘idayoq milliy til muhitidan ajralgan bo‘lsa-da, dastlab bu yo‘qotish unga deyarli sezilmagan. Chunki sovet davrida rus tili davlat tili hisoblanar, radio, televideniya aksar eshittirish, ko‘rsatuvlar shu tilda berilardi. Buning ustiga, Marina maktabda o‘z ona tili va adabiyotidan dars bergan, bu esa ona lisoni bilan

<sup>3</sup> Эркин Аъзам. Шовкин. Роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.266.

<sup>4</sup> Эркин Аъзам. Ўша асар. – Б.265.

<sup>5</sup> Эркин Аъзам. Ўша асар. – Б.266.

aloqasini saqlab turishga imkon beradi. Ammo zamon kelib, zulm saltanati sanalgan ittifoq parchalanadi. Marinaning yoshi o'tib, nafaqaga chiqadi. Oldingi yillarda yoshlik havaslari, yonida madadkor erining borligi tufayli ona til muhitidan uzoqdaligi bilinmagan. Hayot tajribasidan ma'lumki, inson keksalik mavsumiga qadam qo'ydimi, bolalik, u bilan bog'liq makon-manzillar, yaqin qarindoshlar yodga tushaveradi, armonlar yangilanadi. Ayniqsa, ona tildan ayrilish armoni yurakka cheksiz azob-og'riq beradi. Hikoya badiiy konsepsiyasida ona tilidan uzoqlashish qahramon hayoti va taqdiridagi ustuvor fojiaadir, degan nuqtayi nazar markazga qo'yilgan. Hikoyada bejiz "Stupka" deb sarhavha qo'yilmagan. Bu lug'aviy birlik rus tiliga mansub bo'lib, tilimizga kirib kelmagan, shu boisdan uni milliy tilimizda qo'llash "varvarizm" hisoblanadi.

Varvarizm o'zga tildan olinadi, u til sofligini buzadigan so'z yoki nutq qurilmasi bo'lib, o'zlashgan leksikaning eng kam qo'llanadigan turiga mansub. Transliterationsion tarzda yoki hatto o'zga yozuvda qo'llanishi mumkin. Odatda "mahalliy kolorit" yoki "moda ehtiyoji"ni hisobga olib, uslubiy maqsadda istifoda etiladi.<sup>6</sup>

Bu ta'rifda varvarizmning til musaffoligiga putur yetkazadigan birlik ekanligi, badiiy nutqda juda oz, shunda ham uslubiy maqsadda ishlatilishi to'g'ri ko'rsatilgan. Biroq Erkin A'zamning biz tadqiq etayotgan asarida bu so'z "mahalliy kolorit"ni ham, "moda ehtiyoji"ni ham aks ettirmaydi. U muallif tomonidan butunlay boshqa maqsadda qo'llanilgan. Bu boshqa til zahirasida lisoniy birlik badiiy matndagi yetakchi fikrni yuzaga chiqarish, ya'ni qahramon taqdiridagi fojiaiviylikni aks ettirish niyatida hikoya tarkibiga kiritilgan.

"Stupka" so'zi aslida "stupa"ning kichraytirish ma'nosidagi shakli bo'lib, rus tilining to'rt jildli izohli lug'atida shunday sharhlangan: "Metallicheskiy ili tyajyoliy derevyanniy sosud, v kotorom tolkut chto-libo pestom" (metall yoxud og'ir yog'och idish bo'lib, unda nima (ko'pincha don)dir so'yilcha yordamida yanchiladi).<sup>7</sup>

O'zbek tiliga **stupa** o'g'ir, **stupka** esa o'g'ircha tarzida tarjima etiladi.

Bu o'rinda milliy adibimiz tilimizga o'zlashmagan so'zni nega o'z asari matnida qo'lladi, hatto uni sarlavhaga ham olib chiqdi degan savol tug'ilishi tabiiy. Gap shundaki, hikoyada aynan ayollar nutqida nisbatan faol ishlatiladigan bu lug'aviy birlik milliy tildan uzoqlik fojiasini ko'rsatishda alohida ahamiyat kasb etgan.

<sup>6</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

<sup>7</sup> Словарь русского языка в четырёх томах. Том IV. - Москва: Русский язык, 1988. - С.295.

Hikoyada bayon qilinishicha, nafaqaga chiqib ko'pchilikdan, mehnat jamoatsidan ma'lum darajada uzilgan, eri vafoti tufayli yolg'izlangan ayol uchun har oyda bir marta ancha olisda yashaydigan dugonasi va millatdoshi Lena xonadoniga mehmonga borish tasalli, hordiq bo'lib qolgan. Asar muqaddimasi mana shu harakat va unga xos kayfiyat bilan boshlangan: "Arslon akamiz dunyodan o'tgandan so'ng Marina yangamiz mana shu kunni intiqib kutadigan bo'lib qolgan. Ilgari onda-sondagina borardi, endi har oy qatnamasa, ko'ngli joyiga tushmaydi. Taraddudni uch-to'rt kun oldin boshlaydi. Markazga chiqib, sovg'a-salom oladi".<sup>8</sup> Mana shunday harakat-urinishlar ayol uchun dugonasinikiga mehmonga borish katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatyapti. Shunga qaramay, oxirgi mehmondorchilik hali yarim bo'lmay turib, Marina yanganing birdan kayfiyati buzilib ketish harakatiga tushadi. Bunga sabab: mezbon kofe donini yanchish uchun hovonchani qidirishga tushadi. Ularning suhbatini rus tilida kechayotgan bo'lsa-da, Lena axtargan narsasi nomini ancha eslolmay, oxiri uni o'zbekchasini eslaydi. Ruschasi ikkalasining ham yodiga tushmaydi. Mezbon xotin oddiy tikuvchi, lekin Marina filolog o'qituvchi, rus tilidan ko'p yillar bolalarga dars bergan. Shu boisdan ona tilini ma'lum darajada unutish fojiasini Lenaga qaraganda juda og'ir qabul qiladi. Shu boisdan bu xonadonni tark etib, shosha-pisha orqaga qaytadi. Bunday tasvir asar drammatizmini kuchaytirish bilan birga, uning badiiy konsepsiyasini ravshanroq anglash imkonini beradi.

Milliy yozuvchi tomonidan yaratilgan har qanday badiiy barkamol ijod namunasi uning xalqi, milliy kitobxonlari ma'rifati, ma'naviyati zarurati, ehtiyojidan kelib chiqib yoziladi. Hozirgi davrning shart-sharoiti, migratsiya taraqqiyotiga bog'liq holda yuzlab millatdoshlarimiz dunyoning turli burchaklariga ishlash uchun ketyaptilar, ulardan bir qismi o'sha joylarda doimiy yashab qolyapti. Ularni kelajakda qanday taqdir kutishini biz tadqiq qilayotgan asar badiiy manzara va inson qismati ifodasi orqali ko'rsatishi bilan ahamiyatli, deb o'ylaymiz.

**3. Befarzandlik va uning omili bilan bog'liq fojaviylik.** Bu zamonaviy o'zbek adabiyotida ancha ommalashgan mavzu bo'lib, bu o'rinda jadid ma'rifatparvari Mirmuhsin Shermuhammedovning "Befarzand Ochildiboy" qissasi, taniqli adib Shuhratning "Oltin zanglamas" romanini eslash mumkin. Oilada farzand tug'ilmasligi butun insoniyatga xos fojia, lekin o'zbek xalqi azaldan bolaparvar bo'lganidan, bu mentalitetda mazkur fojia ko'lamliroq va chuqurroq his etiladi. O'zbek milliy muhiti

<sup>8</sup> Эркин Аъзам. Шовкин. Роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – Б.258..

tarkibida yashayotgan Marina bu fojiani mazkur ko‘lam va teranlikda qabul qiladi. Shu bilan birga, mana shunday alamli taqdir hayotidagi boshqa fojialar bilan qo‘shilib, uning ruhiy dunyosida og‘ir asoratlarni hosil etadi.

Arslon aka va Marina yanga oilasidagi mazkur fojia asosida boshqa bir badbaxtlik mavjud ekani syujet rivoji jarayonida oydinlashadi: “barchasi ayon bo‘ldi: akamizning sarishtasi asli huv yoshligida, koinotga uchiladigan joylarda xizmat qilib yurganida buzilgan ekan”.<sup>9</sup> Roviy tomonidan xabar tariqasida aytib o‘tilgan muxtasar sintaktik birlikda yer yuzida o‘z naslini qoldirishdan mosuvo qilingan erkak va uning bunday ayanchli umriga esh bo‘lgan ayol fojiasi nihoyatda ta’sirli ko‘rsatilgan. Bu esa yozuvchining badiiy mahoratda ancha baland darajani egallaganligidan dalolatdir.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan fojialar majmuasi mualliflar tomonidan obyektiv tasvir mezon va me‘yorlari asosida badiiy ifoda etilganki, bu yangi davr o‘zbek hikoyachiligida sifat evrilishlari va badiiy tafakkur yangilanishlari bilan uzviy bog‘liq.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.Қуронов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: «Акадегпашг», 2010. – Б. 256
2. Эркин Аъзам. Байрамдан бошқа кунлар. Қисса ва ҳикоялар. – Тошкент: Гафур Ғулум номидаги . Адабиёт ва санъат нашриёти ,1988 . – Б.241.
3. Эркин Аъзам. Шовқин.Роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент:Ўзбекистон, 2011. – Б.262
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki>.
5. Назар Эшонқул. Ялпиз ҳиди. – Тошкент: Шарқ, 2008. – Б. 352
6. В. Shukurova. Никоя бadiiyati . Monografiya . Termiz-2024-y.
7. В. Shukurova. Zamonaviy o‘zbek hikoyachiligi poetikasi. Monografiya.Republic of Moldova, Europe ISBN: 978-620-6-17374-8, 2023-y iyun
8. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. Илмий-назарий тадқиқотлар, адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Гафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. –Б. 356.
9. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi.Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. –В.308.
- 10.<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/erkin-azam/erkin-azam-aralashqorgon-hikoya>.

<sup>9</sup> Эркин Аъзам. Шовқин.Роман, қисса, ҳикоялар. – Тошкент:Ўзбекистон, 2011.. – Б.263..

## HARBIY-PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK OFITSERLARDA "SOFT SKILLS" KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.

**SOXIBOYEV Z.E.**

*dotsent, podpolkovnik, Chirchiq OTQMBYU Taktika kafedrası katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak yosh ofitserlarning "Soft Skills" (yumshoq) ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyatli tomoni, bo'lajak ofitserlarni tayyorlashda ularning o'rni va roli shuningdek oliy harbiy ta'lim muassasalarda ta'lim olayotgan bo'lajak ofitserlarning "Soft Skills" (yumshoq) ko'nikmalarini shakllantirishning asosiy tamoyillari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat, tarbiya, ta'lim, ofitser, "Soft Skills", xususiyat, psixologik holat, emotsiya, tahlillar.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены особенности и значение развития "Soft Skills" у будущих молодых офицеров в высших военных учебных заведениях, их цель и роль в подготовке будущих офицеров, а также основные принципы формирования, выделены "Soft Skills" будущих офицеров, обучающихся в вузах.

**Ключевые слова:** навыка, способности, знания, компетентность, подготовка, образование, офицер, "Soft Skills", черта характера, психологическое состояние, эмоция, анализ.

**Annotation.** This article discusses the features and significance of the development of "Soft Skills" among future young officers in higher military educational institutions, their purpose and role in the training of feature officers, as well as the basic principles of formation, "Soft Skills" of feature officers studying at universities are highlighted.

**Keywords.** skill, ability, knowledge, swimmer competence, education, officers, "Soft Skills", character trait, psychological characters.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy-pedagogik ta'lim jarayonida ta'lim tizimi shaxsni shakllantirishi va rivojlantirishi uchun, davlat standarti talablari asosida hamda jahon ta'lim tizimi darajasida kadrlar yetishtirish uchun avvalo pedagog shaxsining har tomonlama mukammal bo'lishini talab qiladi.

Pedagogika fanining hozirgi zamon yutuqlariga asoslanib, davr talabiga mos keladigan yosh bo'lajak ofitserlarga ta'lim va tarbiya berishda ularning boshqaruvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishda "Soft Skills" yumshoq ko'nikmalarini va mahoratini shakllanish yo'llari va uning ayrim nazariy asoslarini yaratish juda muhimdir. Barkamol avlodni rivojlantirish va shakllantirish vazifalarining serqirraligi va murakkabligi, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun o'ta zarurligini hisobga olganda eng dolzarb masaladir. O'zbekiston Respublikamiz Qurolli kuchlariga har tomonlama yetuk, mustahkam bilim va ko'nikmaga ega bo'lgan o'z bo'ysunuvidagi shaxsiy tarkibni mohirona boshqara oladigan komandirlar nihoyatda zarur.<sup>1</sup> Shu jihatdan oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiyani optimallashtirishning kasbiy ko'nikma va malakalari tizimi hisoblanib, asosan, yosh avlodni maqsadga muvofiq yo'naltirish, ularning ma'naviy e'tiqodini, dunyoqarashini, qobiliyatini ijtimoiy ehtiyoj nuqtai nazardan har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishdan iborat.

Ushbu maqolani dolzarbligi shundaki va undan ko'zlangan asosiy maqsad bo'lajak yosh komandirlarning madaniy tafakkuri, o'z bo'ysunuvidagi shaxsiy tarkib bilan muomala qila olish ko'nikmasi, o'z xulqini o'zi boshqara olish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha faoliyat tizimini ishlab chiqishdan iborat<sup>2</sup>.

Maqolaning dolzarbligi shundaki oliy harbiy ta'lim muassasalarida bo'lajak yosh ofitserlarda "Soft Skills" ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot obyekti va predmeti: va uning oldiga qo'yilgan asosiy maqsad oliy harbiy ta'lim muassasalarida "Soft Skills" ko'nikmalarini rivojlantirish, shakllantirish jarayonini o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida" Qonuni 23.09.2020 y.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi. 2018-yil 9-yanvar.

**“Soft Skills” (yumshoq)** ko‘nikmalar tushunchasi bu muomala, yetakchilik, qaror qabul qilish va boshqa ko‘nikmalar ofitser faoliyatida muhim jihatlar hisoblanadi.<sup>3</sup>



Oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak yosh ofitserlarda “Soft Skills” ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki bugungi kunda qo‘mondonlik va yetakchilikning zamonaviy talablari asosida harbiy faoliyatda rahbarlar, boshliqlar, komandirlar nafaqat qo‘mondonlik qiladi yoki boshqaradi balki jamoani birlashtirish, rag‘batlantirish va o‘zgaruvchan sharoitlarda tezkor qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan


ko‘nikmalarga ham ega bo‘lishi kerak.

“Soft Skills” ko‘nikmalarga ega bo‘lgan rahbar, boshliq o‘z qo‘l ostidagilar bilan samarali muloqot qilib, ularning ishchanligini oshirish mumkin. Shu asosda bir qator ko‘nikmalarni shakllantirish joiz.



**Kuchli muloqot ko‘nikmalari-** Globallashuv davom etayotgan va xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi-geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan yondashuvning ustunlik qilishi, kuch ishlatish, shu jumladan taktik harakatlarning yangi ko‘rinishlari ehtimoli oshganligi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va

<sup>3</sup> Anderson, P. “Leadership and “Soft Skills” for Military officers, A Strategic Guide”. Military press. Bo‘lajak ofitserlarda rahbardik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv qo‘llanma. (2018).




**ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-3**

kibermakonda o‘zaro kurash, tavsiflanib borayotgan davrda ayniqsa global va koalitsiya doirasidagi missiyalarda, jangovar harakatlar davomida bo‘linmani mohirona boshqarishda, turli tillar va madaniyatlar vakillari bilan samarali muloqot o‘rnatish talab qilinadi. Bu borada “Soft Skills”, xususan, madaniy sezgirlik va til bilgichligi muhim ahamiyat kasb etadi.<sup>4</sup>

**Tez o‘zgaruvchan sharoitlarda moslashish ko‘nikmasi-** zamonaviy harbiy mojarolarda, turli-xil sharoitlarda tezkorlik va moslashuvchanlik muhim ahamiyatga ega.


Shu borada bo‘lajak yosh ofitserlar tez o‘zgaradigan vaziyatlarga moslashish, murakkab va aniqlanmagan sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalariga esha bo‘lishi lozim. Bu ko‘nikmalarni rivojlantirish harbiy rahbarlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**“Soft Skills” (yumshoq) ko‘nikmalarni shakllantirish-** bu bo‘linmalarga yuklatilgan vazifalarni va topshiriqlarni o‘z vaqtida samarali bajarish va muammolarni hal yetish uchun asosiy vosita hisoblanadi.<sup>5</sup>



<sup>4</sup> Goleman, D. “ Emotional Intelligence Bantam Books”. (1995). Emotsional intellekt va uning “Soft Skills” ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatli mashhur asar.

<sup>5</sup> Katz, R.L. Menejment va rahbarlikdagi “Soft Skills” ko‘nikmalari haqidagi klassik maqola. (1974).






### Harbiy faoliyatda qo'l ostidagilar bilan ishlash va undagi ijtimoiy ko'nikmalar-

harbiy faoliyatda rahbar muvaffaqiyatli bo'lish uchun harbiy jamoa bilan samarali ishlash, ishonchli munosabatlar o'rnatish, hamkorlik va hamjihatlik muhimdir. Aynan shu nuqtai nazarda "Soft Skills", ko'nikmalarning rivojlanishning yuqori darajasi qo'l ostidagi bo'ysunuvchi shaxsiy tarkib o'rtasida ishonch va o'zaro hamkorlikni oshirishga yordam beradi.

**Stressni boshqarish va emotsional barqarorlik-** Hozirgi vaqtda zamonaviy qurolli to'qnashuvlarda, jang harakatlaring yangicha taktik ko'rinishlari davomida shaxsiy tarkib orasida katta stressga duch kelishi aniq. Shu borada stressni boshqarish, emotsional barqarorlik va o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishda "Soft Skills" harbiy faoliyatda rahbar va boshliqlar uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish orqali harbiy jamoalar uchun yengilroq va samaraliroq qarorlar qabul qilishlariga yordam beradi.<sup>6</sup>

<sup>6</sup> Maxwell, J.C. Liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar to'plami. (2007).



“Soft Skills” (yumshoq) ko‘nikmalarni kelajakdagi harbiy faoliyatda qo‘llash- Harbiy xizmatdan keyingi hayotda ham “Soft Skills” yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantirish ofitserlarga fuqarolik jamiyatiga integratsiyalashni, yangi faoliyatda muvaffaqiyat qozonishda katta ahamiyat kasb etadi.<sup>7</sup>

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Soft Skills” yumshoq ko‘nikmalarni rivojlantirish harbiy sohada nafaqat ofitserlar va harbiylar uchun, balki butun harbiy tizim uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko‘nikmalarni oliy harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ofitserlarning harbiy-kasbiy faoliyatida zamonaviy turli xil turdagi kundalik va jangovar vazifalarni o‘z vaqtida sifatli aniq bajarish va o‘z jamoasi bilan samarali muloqot o‘rnatish imkoniyatlarini yaratib beradi, shuningdek, ularni zamonaviy harbiy qiyinchiliklarga tayyorlaydi.<sup>8</sup>




Shu nuqtai nazarda harbiy-pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak yosh ofitserlarni kompetentlikni shakllantirish bo‘lajak harbiy pedagoglarda kasbiy mohirlik, ijod, ko‘nikmalarini hosil qilish, muomala madaniyati, pedagogik texnika malakalarini shakllantirish, rahbarlik, tarbiyachilik mahoratining dastlabki malakalarini tarkib toptirishni asosiy maqsad qilib belgilaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni 23.09.2020 y.

<sup>7</sup> Abdurahimova D. Harbiy pedagogika. Darslik. T.: Akademiya, 2022.

<sup>8</sup> Abdurahimova D.A., Abidjanova M.A. Harbiy ta’lim tizimida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. O‘quv qo‘llanma.: “Akademiya” nashriyoti 2021 y.



2. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi. 2018-yil 9-yanvar.
3. Anderson, P. “Leadership and “Soft Skills” for Military officers, A Strategic Guide”. Military press. Bo‘lajak ofitserlarda rahbardik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv qo‘llanma. (2018).
4. Goleman, D. “Emotional Intelligence Bantam Books”. (1995). Emotsional intellekt va uning “Soft Skills” ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi ahamiyatli mashhur asar.
5. Katz, R.L. Menejment va rahbarlikdagi “Soft Skills” ko‘nikmalari haqidagi klassik maqola. (1974).
6. Maxwell, J.C. Liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar to‘plami. (2007).
7. Abdurahimova D. Harbiy pedagogika. Darslik. T.: Akademiya, 2022.
8. Abdurahimova D.A., Abidjanova M.A. Harbiy ta’lim tizimida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish. O‘quv qo‘llanma.: “Akademiya” nashriyoti 2021 y.

## INFLYATSIYA VA UNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

**Aliqulov Samandar**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada inflatsiyaning mohiyati, uning kelib chiqish sabablari va iqtisodiyotga ta'siri tahlil qilinadi. Inflatsiya darajasining ortishi jamiyatning turli qatlamlariga qanday ta'sir ko'rsatishi, uning iqtisodiy barqarorlikka bo'lgan xavflari va potensial foydalari muhokama qilinadi. Shuningdek, davlatning inflatsiyani boshqarish strategiyalari, jumladan, pul-kredit va fiskal siyosat vositalari ko'rib chiqiladi. Maqolada inflatsiyaning uzoq muddatli makroiqtisodiy oqibatlarini va uni samarali tartibga solish yo'llari haqida xulosalar beriladi.

Inflyatsiya iqtisodiyotning eng muhim tushunchalaridan biri bo'lib, u tovar va xizmatlar narxlarining umumiy darajada doimiy oshishi natijasida pulning qiymati pasayishini anglatadi. Bu jarayon har qanday davlatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Inflyatsiyaning sabablari turlicha bo'lib, ular orasida talab va taklif omillari, pul massasining ortishi, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'tarilishi hamda tashqi iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi kabilar mavjud. Iqtisodchilar inflyatsiyani mo'tadil va yuqori darajali shakllarga ajratib o'rganadilar, chunki har bir turli sharoitda iqtisodiy o'sish yoki inqirozga olib kelishi mumkin.

Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri murakkab va ko'p qirrali bo'lib, u aholi daromadlarining haqiqiy qiymatiga, investitsiyalar hajmiga, ishlab chiqarish va bandlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mo'tadil inflyatsiya investitsiyalarni rag'batlantirib, iqtisodiy o'sishga turtki berishi mumkin, biroq haddan tashqari yuqori inflyatsiya pulning qadrsizlanishiga, jamg'armalarning kamayishiga va iqtisodiy beqarorlikka olib kelishi mumkin. Nobel mukofoti sovrindori Milton Fridman inflyatsiyani "har doim va hamma joyda pul-kredit hodisasi" deb ta'riflab, uning nazoratsiz o'sishi iqtisodiy inqirozga sabab bo'lishi mumkinligini ta'kidlagan.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, turli mamlakatlar inflyatsiya bilan kurashishda turlicha strategiyalarni qo'llaganlar. Masalan, Germaniyaning 1920-yillardagi giperinflyatsiya davrida narxlarning kun sayin oshib borishi iqtisodiy inqirozga olib

kelgan bo'lsa, XX asr oxirida AQSh va Yevropa davlatlari inflyatsiyani markaziy bank siyosati orqali samarali boshqarishga muvaffaq bo'lgan. Shu sababli, har bir davlat o'z iqtisodiy sharoitiga mos inflyatsiya siyosatini ishlab chiqishi muhimdir.

Ushbu maqolada inflyatsiyaning sabablari, uning iqtisodiy ta'siri va nazorat qilish usullari keng tahlil qilinadi. Inflyatsiya iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, uni to'g'ri boshqarish barqaror rivojlanish uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

### 1. Inflyatsiyaning sabablari

Inflyatsiya turli iqtisodiy va moliyaviy omillar ta'sirida yuzaga keladi. Uni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat:

Talab inflyatsiyasi – aholining tovar va xizmatlarga bo'lgan talabining taklifdan ortib ketishi natijasida narxlarning oshishi. Bu ko'pincha iqtisodiy o'sish davrida, ish haqlarining oshishi yoki kredit siyosatining yumshatilishi natijasida yuzaga keladi.

Taklif inflyatsiyasi – ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi sababli narxlarning ko'tarilishi. Masalan, energiya resurslari, xomashyo yoki ish haqlari qimmatlashganda ishlab chiqaruvchilar bu xarajatlarni iste'molchilarga yuklashadi.

Pul massasining ko'payishi – markaziy bank yoki hukumat tomonidan iqtisodiyotga ortiqcha pul chiqarilishi natijasida pulning qadrsizlanishi sodir bo'ladi. Milton Fridman ta'kidlaganidek, inflyatsiya “har doim va hamma joyda monetar hodisa” hisoblanadi.

Valyuta kursining pasayishi – milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan qadrsizlanishi import qilinadigan tovarlar narxining oshishiga sabab bo'lib, umumiy narxlar darajasiga ta'sir qiladi.

Tashqi iqtisodiy omillar – global iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar yoki geosiyosiy mojarolar natijasida narxlarning keskin oshishi mumkin. Masalan, 2022-yilda Ukrainadagi urush energiya va oziq-ovqat narxlarining butun dunyo bo'ylab oshishiga sabab bo'ldi.

### 2. Inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri

Inflyatsiyaning ta'siri uning darajasiga va davomiyligiga bog'liq. Mo'tadil inflyatsiya iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, biroq yuqori yoki beqaror inflyatsiya turli salbiy oqibatlarga olib keladi.

Aholining real daromadlari pasayishi – inflyatsiya oshgan sari pulning sotib olish qobiliyati kamayadi. Agar ish haqlari inflyatsiya darajasidan past bo'lsa, turmush darajasi pasayadi.

Jamg'armalar va investitsiyalarga ta'siri – inflyatsiya darajasi yuqori bo'lsa, odamlar va kompaniyalar o'z pullarini uzoq muddatli jamg'arishdan ko'ra, tezroq sarflashga harakat qiladilar. Bu esa investitsiyalar hajmining kamayishiga olib keladi.

Kredit bozori va foiz stavkalari – inflyatsiya ortganda markaziy banklar foiz stavkalarini oshiradi, bu esa kredit olishni qimmatlashtiradi va bizneslar uchun investitsiya muhitini murakkablashtiradi.

Ishsizlik va iqtisodiy o'sishga ta'siri – yuqori inflyatsiya biznes xarajatlarini oshirib, ishlab chiqarish pasayishiga va natijada ishsizlik ortishiga olib kelishi mumkin. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik Filipp egrisi orqali tasvirlanadi.

Tashqi savdoga ta'siri – agar inflyatsiya mamlakat ichida yuqori bo'lsa, mahalliy mahsulotlar xorijiy mahsulotlarga nisbatan qimmatlashadi, bu esa eksport hajmining kamayishiga va savdo balansining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.

### 3. Inflyatsiyani nazorat qilish usullari

Inflyatsiyani boshqarish davlatning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biridir. Turli mamlakatlar inflyatsiyani jilovlash uchun quyidagi strategiyalardan foydalanadilar:

Pul-kredit siyosati – markaziy bank foiz stavkalarini oshirish orqali iqtisodiyotdagi pul massasini kamaytiradi va inflyatsiyani jilovlaydi. Masalan, AQSh Federal Rezerv tizimi va Yevropa Markaziy banki bu usuldan keng foydalanadi.

Fiskal siyosat – hukumat soliqlarni oshirish yoki byudjet xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiyotdagi ortiqcha talabni pasaytiradi.

Narxlarni nazorat qilish – ba'zi mamlakatlar strategik mahsulotlar (masalan, energiya yoki oziq-ovqat) narxlarini sun'iy cheklash orqali inflyatsiyani jilovlashga harakat qiladilar, biroq bu uzoq muddatda samarali bo'lmashligi mumkin.

Tashqi iqtisodiy choralar – milliy valyutani barqarorlashtirish va import qaramligini kamaytirish orqali narxlarning ortishini oldini olish mumkin.

Mehnat bozori siyosati – ish haqlarining inflyatsiyaga mos ravishda oshirilishini ta’minlash aholining real daromadini saqlab qolish uchun muhim choradir.

Inflyatsiyani boshqarish samarali siyosat va markaziy banklarning oqilona harakatlarini talab qiladi. Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi inflyatsiyaning nazorat ostida bo‘lishiga bog‘liq bo‘lib, noto‘g‘ri boshqaruv iqtisodiy inqirozlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, davlatlar inflyatsiya xavfini kamaytirish uchun muvozanatli monetar va fiskal siyosat yuritishlari lozim.

Xulosa

**ANNOTATSIYA:** Jahon iqtisodiyotida investitsiyalarga talab va taklif o'rtasida nomutanosiblik tendensiyasi hukm surmoqda. Bugungi kunda investitsiyalar oqimi taraqqiy etgan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga faol yo'naltirilayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Natijada rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushi keskin oshib bormoqda. Ushbu maqolada investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi tushunchalari, ularning nazariy asoslari hamda zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Investitsion jarayonlarni samarali boshqarish, moliyaviy xavflarni kamaytirish hamda investitsion loyihalarning shaffofligini ta'minlashda ichki nazorat va auditning ahamiyati katta. Ichki nazorat tizimi korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi hamda resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Maqolada ichki auditning asosiy funksiyalari, uni tashkil etishning zamonaviy tamoyillari, xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar va ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, investitsion faoliyatda ichki audit tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** investitsion faoliyat, ichki nazorat, audit, moliyaviy xavflar, shaffoflik, nazorat tizimi, xalqaro standartlar, zamonaviy yondashuvlar.

## KIRISH

Hozirgi davrda investitsion faoliyat har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va innovatsion o‘rinishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, sanoatni modernizatsiya qilish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, investitsion jarayonlarning samaradorligini ta’minlash, moliyaviy xavflarni kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari dolzarb hisoblanadi. Investitsion faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida ichki nazorat va audit muhim rol o‘ynaydi. Ichki nazorat tizimi tashkilot va korxonalarda moliyaviy intizomni mustahkamlash, investitsiyalarning shaffofligini ta’minlash va korrupsiya xavflarini kamaytirish uchun zarur bo‘lgan asosiy vositalardan biri sanaladi. Shu bilan birga, ichki audit esa investitsion faoliyatning ishonchliligini oshirish, xatoliklarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali usullarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ichki nazorat va audit jarayonlariga zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish dolzarb masalaga aylangan. Xalqaro standartlar va ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ichki audit tizimini takomillashtirish, raqamli texnologiyalar va tahliliy usullardan keng foydalanish investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi bo‘yicha nazariy asoslar, zamonaviy yondashuvlar hamda ularning amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ichki audit va nazoratning asosiy funksiyalari, xalqaro tajriba va milliy amaliyot asosida investitsion xavflarni kamaytirish mexanizmlari ham ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, investitsion jarayonlarda ichki audit tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

## ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ushbu sohaning nazariy va amaliy asoslarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ko'plab tadqiqotchilar investitsion jarayonlarning samaradorligini ta'minlashda ichki nazorat va auditning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Masalan, K. Spencer Pickett (2010) ichki auditning zamonaviy tamoyillarini yoritib, uning moliyaviy intizomni mustahkamlash va korporativ boshqaruvni yaxshilashdagi rolini tahlil qilgan. Shuningdek, M. Drogalas va G. Siopi (2018) o'z tadqiqotlarida ichki nazorat tizimining investitsion qarorlarni qabul qilishga ta'siri haqida fikr yuritib, uni tashkilotning moliyaviy barqarorligi bilan bog'lagan. Xalqaro amaliyotga ko'ra, COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2013) modeli ichki nazoratning asosiy komponentlarini o'z ichiga oladi va ushbu model hozirda ko'plab tashkilotlar tomonidan qo'llanilmoqda. Basel II va Basel III standartlari esa bank sektorida ichki audit va nazorat tizimlarining ahamiyatini belgilaydi. O'zbekiston sharoitida esa A. Karimov (2021) va Sh. Raximov (2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda milliy iqtisodiyotda ichki audit tizimini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Hozirgi kunda investitsion faoliyatning shaffofligini ta'minlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Deloitte (2020) va PwC (2021) tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirishning afzalliklari, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining auditi rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan.

Ushbu tadqiqot investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi bo'yicha nazariy va amaliy jihatlarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi: Tahliliy usul – investitsion faoliyatda ichki nazorat va audit tizimining ahamiyatini o'rganish maqsadida xalqaro va milliy adabiyotlar, ilg'or

tadqiqotlar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Taqqoslash usuli – ichki auditning xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash va O‘zbekiston sharoitidagi investitsion faoliyat nazorati bilan solishtirish uchun qo‘llanildi. Statistik usul – investitsion faoliyatning shaffofligini oshirish va ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash maqsadida iqtisodiy ko‘rsatkichlar va audit hisobotlari tahlil qilindi. Amaliy tadqiqotlar – ichki audit va nazorat tizimini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalardan foydalanish, jumladan, COSO modeli, Basel standartlari hamda Deloitte va PwC tomonidan taklif etilgan innovatsion yondashuvlar o‘rganildi. Ekspert baholash usuli – investitsion faoliyatda ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish bo‘yicha mutaxassislarning fikrlari va tavsiyalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, investitsion faoliyatda ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi hamda ushbu yo‘nalishda samarali boshqaruv strategiyalari taklif etildi.

## ASOSIY QISM

Investitsion faoliyat iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, korxonalar va tashkilotlarning kapital mablag‘larini samarali boshqarishga qaratilgan. Investitsiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun ularning shaffofligi, xavfsizligi va moliyaviy natijadorligi kafolatlanishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ichki nazorat va audit tizimi investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ichki nazorat – bu tashkilot ichida moliyaviy, huquqiy va operatsion xavflarni kamaytirish maqsadida qo‘llaniladigan mexanizmlar majmuidir. Ichki nazorat tizimi quyidagi asosiy komponentlardan iborat: Nazorat muhiti – korxonada ichki nazorat tamoyillariga rioya qilish darajasi. Risklarni baholash – investitsiyalarning barqarorligini ta‘minlash uchun moliyaviy va operatsion xavflarni baholash jarayoni. Nazorat faoliyatlari – buxgalteriya tizimi, audit, hujjatlar yuritish va boshqa nazorat

choralari. Axborot va kommunikatsiya – moliyaviy hisobdorlik va investitsion shaffoflikni ta’minlash uchun axborot oqimlarini boshqarish. Monitoring – ichki nazorat tizimining samaradorligini doimiy baholash va uni takomillashtirish.

Ichki audit esa ichki nazorat tizimining samaradorligini mustaqil baholash va takomillashtirish uchun mo’ljallangan. U quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi: Investitsion faoliyatning shaffofligini ta’minlash; Moliya oqimlarini nazorat qilish va firibgarlik xavfini kamaytirish; Xatolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish; Xalqaro audit standartlariga muvofiq investitsiya loyihalarini tekshirish.

Hozirgi kunda ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirishda bir qator zamonaviy yondashuvlar qo’llanilmoqda: Raqamli texnologiyalar va axborot tizimlaridan foydalanish, Blokcheyn texnologiyalari moliyaviy operatsiyalar shaffofligini ta’minlashga yordam beradi. Sun’iy intellekt va big data tahlili investitsion qarorlarni aniqroq qabul qilish imkonini beradi. ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlari audit jarayonlarini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Riskga asoslangan audit tizimi. Bu yondashuv firibgarlik va moliyaviy yo’qotish xavfini kamaytirish uchun investitsiya loyihalarini tizimli baholash imkonini beradi. Bank sektori va yirik korporatsiyalarda riskga asoslangan audit joriy etilib, investitsion xavflarni oldindan bashorat qilish samaradorligi oshirilmoqda. Investitsion faoliyatning barqarorligini ta’minlash uchun ichki nazorat va audit tizimining roli juda muhim. Zamonaviy texnologiyalar, xalqaro standartlar va ilg’or audit metodlari asosida investitsion jarayonlarning shaffofligini ta’minlash va moliyaviy xavflarni kamaytirish mumkin. O’zbekistonda ichki audit tizimini takomillashtirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga ega bo’lib, ularni yanada rivojlantirish investitsion muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

## NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, moliyaviy shaffoflikni oshirish va investitsion xavflarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Ichki nazorat tizimi investitsiya xavflarini kamaytirishda samarali vosita hisoblanadi. COSO modeli asosida ishlab chiqilgan ichki nazorat tizimlari kompaniyalar faoliyatini samarali nazorat qilish imkonini beradi. Ichki audit tizimining rivojlanishi korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, investitsiyalarning natijadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ichki audit jarayonlarini avtomatlashtirishga va moliyaviy axborotning aniq hamda tezkor tahlil qilinishiga imkon yaratadi. ERP tizimlari, blokcheyn texnologiyalari va sun'iy intellekt vositalari orqali investitsion jarayonlarning shaffofligini ta'minlash imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, riskga asoslangan audit tizimi investitsiya loyihalarining xavfsizligini oshirish va moliyaviy yo'qotishlarni minimallashtirishda samarali yondashuvlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi tizimi rivojlanayotgan bo'lsa-da, hali to'liq avtomatlashtirilmagan va xalqaro standartlarga to'liq moslashmagan. Xususan, moliyaviy xavflarni bashorat qilish tizimlarining yetarlicha rivojlanmagani, ichki auditning avtomatlashtirish darajasi pastligi va investitsion jarayonlarning shaffofligi bo'yicha muayyan kamchiliklar mavjud. Muhokama jarayonida xalqaro tajribani o'rganish va ilg'or audit texnologiyalarini joriy etish muhimligi ta'kidlandi. Investitsion jarayonlarning samaradorligini oshirish uchun ichki nazorat va auditning integratsiyalashgan tizimini yaratish talab etiladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga moslashish, ichki audit tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish va risklarni aniqlash va boshqarish usullarini

takomillashtirish investitsion muhitni yanada barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi tizimini takomillashtirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois, kelajakda ichki audit jarayonlarini raqamlashtirish, xalqaro standartlarga moslashish va investitsion xavflarni minimal darajaga tushirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

## XULOSA

Investitsion faoliyatning ichki nazorati va auditi iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ichki nazorat tizimi investitsion jarayonlarning shaffofligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ichki audit esa moliyaviy yo'qotishlar va xavflarni kamaytirishga, investitsiya loyihalarining ishonchligini ta'minlashga imkon yaratadi. Zamonaviy yondashuvlar, jumladan, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarining joriy etilishi audit jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini bermoqda. Riskga asoslangan audit esa investitsion faoliyat xavfsizligini oshirish va kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston sharoitida investitsion faoliyatni ichki nazorat qilish va audit tizimini takomillashtirish borasida muayyan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, tizimning to'liq avtomatlashtirilmagani, xalqaro standartlarga moslashish jarayonining sustligi va moliyaviy xavflarni baholash mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani asosiy muammolar sifatida namoyon bo'lmoqda. Kelajakda ichki audit tizimini avtomatlashtirish, xalqaro tajribani joriy etish va investitsion xavflarni minimallashtirish yo'nalishida keng qamrovli tadqiqotlar va amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali

mamlakatning investitsion muhitini yanada jozibador qilish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. COSO (Committee of Sponsoring Organizations). (2013). Internal Control – Integrated Framework.
2. Basel Committee on Banking Supervision. (2017). Basel III: Finalising Post-Crisis Reforms. Bank for International Settlements.
3. International Federation of Accountants (IFAC). (2019). Handbook of International Quality Control, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements.
4. International Financial Reporting Standards (IFRS). (2020). IFRS Foundation Standards Overview.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Davlat auditi va moliyaviy nazorat to‘g‘risida”gi Qonuni. (2021).
6. Xalqaro moliyaviy audit va ichki nazorat bo‘yicha ilmiy maqolalar va monografiyalar.

## INGLIZ TILINI O‘QITISHDA O‘QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

**Hamroyeva Muxlisa Farxod qizi**

TerDPI, Tillar fakulteti

[Muhlisaxamroyeva@gmail.com](mailto:Muhlisaxamroyeva@gmail.com)

### ANNOTASIYA

Ushbu maqololada o‘qituvchining ta’lim jarayonini samarali va maqsadga muvofiq tashkil etish, o‘quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, ularga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatishda o‘zining professional yondashuvini namoyon qilish haqida ma’lumotlar keng yoritilgan. Jumladan: o‘quvchilarni individual ravishda tushunish va ularga moslashtirish, pedagogik texnikalar va metodlarni to‘g‘ri tanlash, motivatsiya yaratish, tilni kommunikativ yondashuvda o‘rgatish, o‘quvchilarga tinglash va so‘zlashni rivojlantirish, texnologiyalardan samarali foydalanish, doimiy professional rivojlanish, fikr va mulohazalarni taqdim etish, sinovlar va baholashni to‘g‘ri tashkil etish kabi usulardan foydalaniladi.

**Kalit so‘zlar:** Pedagogik mahorat, professional, individual, vizual, qobiliyat, audiovizual materiallar.

### TEACHER'S PEDAGOGICAL SKILLS IN TEACHING ENGLISH

#### ABSTRACT

This article provides extensive information on how a teacher can effectively and purposefully organize the educational process, take into account the needs of students, and demonstrate their professional approach in teaching them the necessary knowledge, skills, and competencies. In particular, methods such as: understanding and adapting to individual students, choosing the right pedagogical techniques and methods, creating motivation, teaching language in a communicative approach, developing students' listening and speaking skills, effective use of technology, continuous professional development, providing feedback, and properly organizing tests and assessments are used.

**Keywords:** Pedagogical skills, professional, individual, visual, abilities, audiovisual materials.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МАСТЕРСТВА УЧИТЕЛЯ В ПРЕПОДАВАНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

#### АННОТАЦИЯ

В статье представлена обширная информация о том, как педагогу эффективно и целенаправленно организовать образовательный процесс, учесть потребности учащихся, продемонстрировать свой профессиональный подход в обучении их необходимым знаниям, умениям и компетенциям. В частности, используются такие методы, как: понимание и адаптация к индивидуальным особенностям учащихся, выбор правильных педагогических приемов и методов, создание мотивации, преподавание языка в коммуникативном подходе, развитие навыков аудирования и говорения учащихся, эффективное использование технологий, непрерывное профессиональное развитие, предоставление обратной связи, правильная организация тестов и оценок.

**Ключевые слова:** Педагогические навыки, профессиональные, индивидуальные, визуальные, способности, аудиовизуальные материалы.

### **KIRISH**

Ingliz tilini o'qitishda o'qituvchining pedagogik mahorati katta ahamiyatga ega. Pedagogik mahorat o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali va maqsadga muvofiq tashkil etish, o'quvchilarning ehtiyojlarini inobatga olish, ularga kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatishda o'zining professional yondashuvini namoyon qilishni anglatadi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur maqola bo'yicha tadqiqot davomida ingliz tilini o'qitishda o'qituvchining pedagogik mahoratini o'rganish uchun turli ilmiy manbalar tahlil qilindi. Jumladan, Richards J. C.ning "Approaches and Methods in Language Teaching", Harmer J.ning "The Practice of English Language Teaching", Dörnyei Z.ning "Motivational Strategies in the Language Classroom", shuningdek, ingliz tilini o'qitishda zamonaviy metodlar va texnologiyalarning o'rnini yorituvchi xalqaro ilmiy maqolalar ham o'rganib chiqildi.

### **NATIJALAR**

Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitishda o'qituvchining pedagogik mahorati samarali ta'lim jarayonining asosiy omili sifatida ko'rib chiqildi. O'qituvchining kasbiy mahorati o'quvchilarning til o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va tilni amaliy qo'llashga yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o'qituvchi mahoratini yanada oshirishga va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

## MUHOKAMA

Ingliz tilini o'qitish 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qarori bilan 2013-2014-yildan boshlab 1-sinflarga ham ingliz tili darslari o'tila boshlandi. Oliy ta'lim muassasalarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Moliya vazirligining chet tillar o'qituvchilari va muallimlariga qonun hujjatlari bilan belgilangan rag'batlantiriluvchi to'lovlar joriy etildi va qishloq joylarda joylashgan ta'lim muassasalarida ishlasa ularning tarif stavkalariga 30 foiz va boshqa ta'lim muassasalarida 15 foiz stavkalari miqdoridagi har oydagi qo'shimchalar qo'shib berishni belgilash to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Yoshlarda ingliz tilini o'rganishga qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Ingliz tilini samarali va qiziqarli o'rgatish uchun zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiya mavjud.

O'qituvchi har bir o'quvchining o'ziga xos ehtiyojlari va qobiliyatlarini hisobga olib, darsni shunday tashkil qilishi kerakki, har bir o'quvchi o'zining individual xususiyatlariga mos ravishda samarali ta'lim olish imkoniga ega bo'lsin. Masalan, ba'zi o'quvchilar vizual usullar orqali yaxshi o'rganishadi, boshqalari esa tinglab yoki amaliy mashqlar orqali o'rgatishni afzal ko'rishadi.

Shuningdek pedagogik texnikalar va metodlarni to'g'ri tanlash kerak. Ingliz tilini o'qitishda turli pedagogik metodlar, uslublar va texnikalar mavjud. O'qituvchi bu usullarni talabalar darajasiga, motivatsiyasiga va dars mavzusiga moslashtirib tanlashi kerak. Masalan, audiovizual materiallar, interaktiv o'yinlar, guruhli ishlash, diskussiyalar yoki individual topshiriqlar orqali o'quvchilarning tilni o'rganish jarayonini jonlantirish mumkin. Til o'rganish jarayoni ba'zida qiyin va uzoq bo'lishi mumkin, shuning uchun o'qituvchi o'quvchilarning motivatsiyasini yuqori darajada saqlab turish uchun turli xil usullarni qo'llashi zarur. Darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, o'quvchilarga yutuqlari uchun mukofotlar yoki rag'batlar taqdim etish, shuningdek, ularni o'z muvaffaqiyatlarini baholashda qo'llab-quvvatlash motivatsiyani oshiradi. Ingliz tilini o'qitishda faqatgina grammatikani o'rganish emas, balki tilni real hayotda qo'llash, ya'ni kommunikativ yondashuvni rivojlantirish muhimdir. O'qituvchi o'quvchilarga tilni amaliyotda ishlatish imkoniyatini yaratishi, ular bilan real muloqotlar o'tkazishi, turli vaziyatlarda tilni qo'llashga o'rgatishi kerak. O'quvchilarga tinglash va so'zlashni rivojlantirishga ham yordam beradi. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning eshitish

(listening) va so‘zlash (speaking) ko‘nikmalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratishi kerak. Bu uchun darslarda interaktiv mashqlar, suhbatlar, roliklar va audio materiallar yordamida o‘quvchilarga tilda erkin muloqot qilishga imkon yaratish zarur. Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayoniga katta yordam beradi. O‘qituvchi ingliz tilini o‘rgatishda onlayn platformalar, mobil ilovalar, ta’lim uchun mo‘ljallangan veb-saytlar va boshqa interaktiv vositalardan foydalanishi, shuningdek, video va audio materiallar bilan ishlashni davom ettirishi kerak. Ingliz tili o‘qituvchisi doimiy ravishda o‘zining pedagogik va metodik bilimlarini yangilab borishi, yangi uslublar, texnologiyalar va metodologiyalardan xabardor bo‘lishi zarur. Bu o‘qituvchining o‘zining pedagogik mahoratini oshiradi va o‘quvchilar uchun yanada samarali ta’lim yaratadi. O‘quvchilar o‘zlarining ishlari va yutuqlari bo‘yicha to‘g‘ri va konstruktiv fikrlarni olishlari kerak. Bu orqali ular o‘z xatolaridan saboq olib, yanada yaxshilanishga intilishadi. O‘qituvchining samarali fikr-mulohazasi o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini yanada kuchaytiradi. O‘quvchilarning bilimlarini baholashda adolatli va ob’ektiv bo‘lish zarur. Baholash jarayonida turli xil usullar (testlar, yozma ishlar, og‘zaki imtihonlar) qo‘llanilishi mumkin. Baholash o‘quvchilarga o‘zlarini qayta ko‘rib chiqish va rivojlantirish uchun yordam beradi.

### XULOSA

Shunday qilib, ingliz tilini o‘qitishda o‘qituvchining pedagogik mahorati darsni qiziqarli, samarali va o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirishga katta yordam beradi. O‘qituvchining malakali pedagogik yondashuvi til o‘rganish jarayonini ancha samarali va maqsadga muvofiq qilishga imkon yaratadi.

### REFERENCES

1. **Pegrum, M.** (2014). *Mobile Learning: Languages, Literacies and Cultures*. Routledge.
2. **Godwin-Jones, R.** (2018). *Emerging Technologies for Language Learning*. *Language Learning & Technology*, 22(2), 1-17.
3. **Richards, J. C., & Rodgers, T. S.** (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
4. Kumri Khamraevna Allaberdieva. [Organizing integrated education in pre-school education](#)// Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. 2023/10/14. Том 2. Номер 7. Страницы 19-25.

5. К.Х. Аллабердиева. Особенности развития творческих способностей в дошкольном возрасте// Вопросы педагогики, 2019. Страницы 19-22.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching.
7. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching.
8. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge University Press.

## HUDUDNING DRAYVER TARMOQLARINI YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI

**Erdanayev Bunyod Abdumalikovich**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti iqtisodiyot kafedrası o‘qituvchisi

Email: [erdanayevbunyod@gmail.com](mailto:erdanayevbunyod@gmail.com)

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada hududning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqot ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy rivojlanish o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlaydi.

**Kalit so‘zlar:** Yashil iqtisodiyot, drayver tarmoqlari, hududiy rivojlanish, barqarorlik, ekologik samaradorlik, strategiyalar, iqtisodiy o‘shish, ijtimoiy muvozanat, innovatsiyalar.

**Аннотация:** В данной статье анализируются пути совершенствования стратегий развития драйверных отраслей региона на основе принципов зеленой экономики. Исследование направлено на обеспечение баланса между экологической устойчивостью, экономической эффективностью и социальным развитием.

**Ключевые слова:** Зеленая экономика, драйверные отрасли, региональное развитие, устойчивость, экологическая эффективность, стратегии, экономический рост, социальное равновесие, инновации.

**Abstract:** This article analyzes ways to enhance development strategies for driver sectors in regions based on green economy principles. The research aims to balance ecological sustainability, economic efficiency, and social development for a holistic approach to regional growth.

**Keywords:** Green economy, driver sectors, regional development, sustainability, ecological efficiency, strategies, economic growth, social balance, innovations.

**Kirish.** Hududning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish – zamonaviy iqtisodiy va ekologik sharoitlarda juda dolzarb hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot tamoyillari tabiiy resurslarni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga

qaratilgan yondashuvdir. Hozirgi kunda global iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va resurslarning cheklanishi kabi masalalar jahon miqyosida dolzarb muammolar sifatida ajralib turadi.

Hududiy rivojlanish, o'z navbatida, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va ekologik muhofazani birlashtiradigan kompleks jarayon hisoblanadi. Drayver tarmoqlari – bu iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi va hududiy rivojlanishga ta'sir ko'rsatuvchi sohalardir. Ularni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish, nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash uchun ham zarurdir.

Ushbu tadqiqotning ahamiyati, regionlarda yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish, drayver tarmoqlarini rivojlantirish va ularning barqarorligini oshirishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Bu nafaqat mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlashga, balki global miqyosda barqaror rivojlanishga hissa qo'shishga ham imkon beradi. Shunday qilib, tanlangan mavzu iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan muhim axborot va strategiyalarni taqdim etishi bilan birga, hududiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

**Asosiy qism.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida yashil iqtisodiyotning amaliy vazifalari maxsus, keng qamrovli va teran tadqiqotlar bilan shug'ullanadigan, tabiatdan oqilona foydalanishning nazariy asoslarini ishlab chiqadigan

“Yashil iqtisodiyot” fani shakllandi. Ushbu atama ilk bor adabiyotlarda 1989-yilda Buyuk Britaniya hukumati uchun yetakchi qitiodchilar tomonidan “Yashil iqtisodiyot” ni rivojlantirish rejasi deb nomlangan hisobotda foydalanilgan<sup>1</sup>.

Yashil iqtisod atrof-muhitni himoya qilish targ'ibotchilari va yashil siyosatchilardan ularning ehtiyoji tufayli paydo bo'ldi. U pastdan yuqoriga va mavhum nazariyalardan ko'ra amalda barqaror iqtisodiyotni qurayotganlardan o'sdi. Iqtisodiy o'sish bilan bog'liq aniq muammolar olimlar tomonidan e'tibordan chetda qolmadi: ba'zi iqtisodchilar ularni payqashdi va keyin bu tashvishlarni o'z intizomiga kiritishga harakat qilishdi.

Bu atrof-muhit iqtisodiyotining rivojlanishiga, shuningdek, tabiiy resurslar asrab avaylash yashil iqtisodiyotni o'rganishga olib keldi. Atrof-muhit bo'yicha iqtisodchilar ushbu salbiy ta'sirlarni intizomga qaytarishni xohlashdi. Biroq, ular hali ham bu mavzuga ilmiy va o'lchovga asoslangan tarzda yondashdilar, masalan, odamlarning tabiatni

<sup>1</sup> Blueprint for a Green Economy: David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.

ifloslanishi yoki yashash joyining yo‘qolishidan qanchalik tashvishlanayotganini o‘lchash uchun tabiiy muhitni asrab avaylash va iqtisodiy baholash ham muhim ahamiyatga ega ekanligini fanning o‘zi kelajakda isotlab beradi.

Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak, iqtisodning an’anaviy ravishda baholanishi mumkin bo‘lmagan narsani chetga surib qo‘yishi yoki e’tiborsiz qoldirishi hali ham amal qilib kelindi, ammo javob hayotning qandaydir tarzda iqtisodiyot e’tiborsiz qoldirgan jihatlarini baholashga urinish edi.

Yashil iqtisodchilar buni kategoriya xatosi deb hisoblashadi; boshqacha qilib aytganda, ular hayotning ba’zi jihatlarini shunchaki o‘lchab bo‘lmaydigan ijtimoiy yoki ma’naviy qiymatga ega ekanligini qabul qilish muhim deb hisoblashadi. Darhaqiqat, ko‘plab yashil iqtisodchilar hisoblashning o‘zi muammoning bir qismi ekanligini taxmin qilishgacha borishadi. Bitta misol uchun, har qanday narsani hisoblash uchun biz dunyoni alohida toifalarga ajratishimiz kerak, masalan, yarim kunlik yoki to‘liq kunlik ishchilar, erkaklar yoki ayollarning tabiiy muhitga e’tivor darajasini iqtisodiy aholash desak maqsadga muvofiq o‘lar edi.

Bu iqtisodiyot va jamiyatga yashil yondoshuvning asosi bo‘lgan holizm tamoyiliga qarshi chiqadi. *Yana bir misol:* O‘lchov jarayonining tabiati bizning tajribamizni chap qo‘l o‘ng qo‘l qilayotgan zararni ko‘ra olmasligi uchun qismlarga ajratishdir. Garchi bu turdagi “atrof-muhitni hisobga olish” foydali bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, u miqdorni sifatdan ustun qo‘yish paradigmasi ichida qoladi. Atrof-muhit iqtisodiyoti iqtisodiy faoliyatning ijtimoiy va atrof-muhitga ta’sirini kun tartibiga qat’iyroq kiritishda ko‘p yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, bu muammolarni hal qilishda ierarxik yondashuvni qo‘llashda davom etmoqda, bu esa yana yashil yondashuvga zid keladi.

Atrof-muhit iqtisodiyotiga oid eng mashhur kitoblardan birining nomi buni aniq ko‘rsatib turibdi. Bu aniq raqamli yondashuvni talab qiladi, baholash va buxgalteriya usullarini taklif qiladi. Yashil iqtisodchi uchun bunday umumlashtirilgan “loyiha” tushunchasi muammoli, chunki ekologiya tabiati mahalliy muhitga moslashishni, mahalliy sharoitni aks ettiruvchi iqtisodiy muammolarni hal qilishning xilma-xilligini taklif qiladi. Falsafiy pozitsiyani tushunish haqida gap ketganda, ismda har doim ko‘p narsa bor. Ekologik iqtisodchilar atrof-muhitni muhokama qilishlari mumkin; yashil iqtisodchilar sayyora yoki Yer haqida ko‘proq gapirishadi. Bu faqat intellektual yoki akademik falsafa emas, balki asosli falsafa ekanligidan dalolat beradi.

**“Yashil iqtisodiyot”ni nazariy asoslashdan keyin uning ahamiyatini iqtisodiy subyektlar o‘rtasida ommalashtirish zarurati paydo bo‘ldi. Ushbu darajada yashil iqtisodiyotning bosh vazifasi jamiyatda ekologik toza ishlab chiqarishning zarurligi va ahamiyati to‘g‘risida dunyoqarashni uyg‘otish hisoblanadi.<sup>2</sup>**

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi muammosi olimlar va ekologlarning periferik tashvishidan global siyosatni ishlab chiqishda markaziy muammoga aylandi. Iqtisodiyotimizda faoliyat ko‘rsatish usuli bizning omon qolishimizga tahdid soladigan darajada ifloslanishni keltirib chiqarayotganini anglash birinchi navbatda iqtisodiyotga yashil yondashuvni rivojlantirishga turtki bo‘ldi. Biz neft zaxiralari kamayib borayotgan va qolganlari uchun raqobat kuchaygan davrdamiz.

Bu butunlay neftga bog‘liq bo‘lgan iqtisodiyotning kelajagi va cheklangan resurslarimizdan oqilona foydalanish muhimligini yanada kengroq e‘tirof etish borasida xavotir uyg‘otadi. Bu yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yana bir turtki bo‘ldi. Bundan tashqari, yashil iqtisodchilar raqobatga asoslangan iqtisodiy tizim boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi tengsizlikning global va milliy miqyosda kengayishiga olib kelishi va bu tengsizlikning muqarrar keskinlik va to‘qnashuvlarga olib kelishidan xavotirda. Yashil iqtisodiyot bu odamlar va sayyora uchun iqtisodning bardavom o‘sib boruvchi asosiy eng muhim jihati demakdir.

**“Shu bilan birga, iqtisodiyotning energiya samaradorligi yetarli darajada emasligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalana olmaslik texnologiyalar yangilanishining sustligi, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish uchun innovatsion yechimlarni joriy etishda kichik biznesning faol ishtirok etmayotgani milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilmoqda”<sup>3</sup>.**

Yashil iqtisodiyotni o‘sishi iqtisodiy kelajak bilan hamohanglikda iqtisodiy odamlar bilan rivoj topadi. Iqtisodiy odam - sog‘lom, harakatchan, mehnatga layoqatli, uning haqiqiy ijtimoiy, biologik va ekologik holatini ifodalaydi.

Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasining o‘zi birinchi marta 1989 yilda “Yashil iqtisodiyot uchun loyiha” hisobotida paydo bo‘lgan va u Yevropa mamlakatlari iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo‘yicha ekspertlarning fikrmulohazalarida yetakchi o‘rinni

<sup>2</sup> A.Vahobov, S.Xajibakirov, Sh.Xo‘jayorov “Yashil iqtisodiyot” Darslik. Toshkent. Unversitet. 12-bet

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son 2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida

egallagan. Keyinchalik tabiiy muhitga g'amxo'rlik qilish va jamiyatlarning hayot sifatini yaxshilash ustuvor vazifa bo'ldi.

Iqtisodiyotini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotdan foydalanish tabiiy resurslardan iste'mol mahsulotlar ishlab chiqarishda qayta tiklanadigan resurslarga asoslaniladi. Bu resurslar inson omili yordamida rivojlanadi va batamom yakson bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, bularga qishloq, o'rmon, suv va boshqa xo'jaliklari, issiqlik energetika manbalarini ham tarmoq sifatida kiritish mumkin, chunki ushbu tarmoqlar respublikamizning barcha hududlari kesimida rivojlanishga asos bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mamlakatimiz viloyatlarining tashqi savdao aylanmasi ham eng muhim omillardan biri sanaladi. Chunki har bir hududning ijtimoiy kelib chiqishidan ham uning rivojlanish darajasini bilish mumkin.

Barqaror rivojlanishni ta'minlashdagi iqtisodiy nazorat, resurslaridan oqilona foydalanish va nazariy bilimlarni mustahkamlab borishni nazarda tutadi. Ijtimoiy dunyo global miqyosida ijtimoiy barqarorlik va madaniy hilma-hillikni ta'minlashga erishildi. Ekologik yaratish esa har turdagi ekologik tizimlarning normal faoliyat yuritishini taminlashga xizmat qilishi zarur bo'ladi.

Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturi 17 ta global maqsadlarni vazifalarni o'z tarkibiga oladi:<sup>4</sup> *Ularga quyidagilar kiradi:*

1. qashshoqlikni yo'qotish;
2. tugatishni chaqirish;
3. sog'lik va farovonlik;
4. sifatli ta'lim;
5. jins tengligi;
6. toza suv va sanitariya;
7. arzon va toza energiya;
8. munosib ish o'rinlari kerak va iqtisodiy o'sish;
9. sanoatlashtirish, innovatsiyalar, infratuzilma;
10. tengsizlikni kamaytirish;
11. barqaror shaharlar va qulay yashash joylarini egallash;
12. masuliyatli istemol va ishlab chiqarish;
13. iqlim o'rganishiga qarshi kurashish

<sup>4</sup> A.Vahobov, S.Xajibakirov, Sh.Xo'jayorov "Yashil iqtisodiyot". Darslik. Toshkent. Universitet

14. dengiz ekotizimlarini asrash;
15. turistik ekotizimlarni asrash;
16. tinchlik, adolat va samarali boshqaruv;
17. barqaror rivojlanish yo'lida hamkorlik.

Barqaror rivojlanish maqsadlari dasturining 17 maqsadini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga tayangan holda tahlil qilamiz.

Yashil iqtisodiyot rivojlantirishda tabiiy resurslardan samarali foydalanish jarayonida atrof- muhitni muhofaza qilishning o'ziga xos xususiyatlari hozirgi zamon talablariga muvofiq tarkib topgan. U ko'plab turli elementlardan iborat bo'lib, respublikamizning raqamli iqtisodiyoti sharoitida ushbu mexanizm borgan sari takomillashib bormoqda.

Ushbu elementlarga quyidagilar kiradi:

- ✓ Yashil moliya,
- ✓ Xavfsiz energiya ta'minoti,
- ✓ Aqilli qishloq xo'jaligi,
- ✓ Barqaror aqlli transport,
- ✓ Yashil innovatsiya,
- ✓ Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash.

Bizga ma'lumki, ushbu bir biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan iqtisodiy elementlar atrof- muhitni muhofaza qilishning eng ustuvor yo'nalishlari sarasiga kiradi. Chunki tizimli yo'lga qo'yilgan sohada rivojlanish barqaror bo'ladi.

Yashil moliya - bizga ma'lumki moliya o'zining vazifasida taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasini bajarsa, yashil iqtisodiyotda ham resurslarga bo'lgan ehtiyoj va moliyaviy mablag'larni taqsimlash vazifasini oshkoralik asosida bajaradi.

Xavfsiz energiya ta'minoti – bu jarayonda ham tabiiy resurslarni rivojlantirishda xavfsiz energiya masalasi birinchi o'rinda turadi. Chunki tiklanadigan energiya manbaalari xavfsiz holda ortib borishi kerak bo'ladi. Aqilli qishloq xo'jaligi - Qishloq xo'jaligi sohasida haligacha sobiq tuzum asoratlari saqlanib qolganligi barchamizga sir emas.

**Mavjud muammolarni hal etish uchun iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kam uglerod sarflagan holda rivojlanish va resurslarni tejash, samarali va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish,**

**shuningdek, barqaror qishloq xo‘jaligiga yo‘naltirilgan “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali tabiiy va energiya resurslaridan foydalanish usullarini tubdan o‘zgartirish talab etiladi<sup>5</sup>.**

Ushbu jarayonlarda yashil iqtisodiyot va ekotizimlar o‘rtasidagi munosabatlarga e’tibor qaratadi, va shu munosabatlar yig‘indisi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish iqtisodiy mexanizmini operativlashtirish uchun asos yaratadi. Yashil iqtisodiyot kontseptsiyasining o‘zi birinchi marta 1989-yilda “Yashil iqtisodiyot uchun loyiha” hisobotida paydo bo‘lgan va u Yevropa mamlakatlari iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo‘yicha ekspertlarning fikr-mulohazalarida etakchi o‘rinni egallagan.

hunday jarayonlarda qishloq xo‘jaligini yangitdan barpo etish, eng so‘ngi texnologiyalar yordamida isloh qilish kerak bo‘ladi. Mamlakatimizda esa so‘ngi yillarda bu borada bir qancha davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Barqaror aqlli transport – yashil iqtisodiyotga eng katta xavf solayotgan sohalardan biri bu albatta avtomobil transportidir. Elektromobillar ishlab chiqarish bunday sohani yanada rivojlantiradi.

Dunyo bo‘ylab 771 mln.dan oshiq inson toza ichimlik suvidan foydalana olmaydi. Yana shunday mamlakatlar borki insonlar o‘z daromadining 50%dan oshig‘ini toza ichimlik suvi uchun sarflashadi. 1 m<sup>3</sup> suvning narxi eng qimmat:

- Daniya \$9,70;
- Belgiya \$7,54;
- Norvegiya \$7,09;
- Alyaskada oyiga \$95;
- Germaniya \$ 6,6;
- Arzon: Mamlakatlar.
- Misr (Qohira) \$0,05;
- Kuba (Gavana) \$0, 04;
- O‘zbekiston \$0,4;
- Pokiston (Karachi) \$0,04;
- Indoneziya (Jakarta) \$0,03;

---

<sup>5</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019-yildagi PQ-4477-son “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori.

— Saudiya Arabistoni (Riyod) \$0,03.

Qo'shnimiz Turkmanistonda 2017-yil 01-noyabr kuniga qadar bepul bo'lgan. 2019-yilgacha belgilangan limit bepul bo'ldi. Undan so'ng axoli uchun \$0,14 bo'ldi.

Qozog'istonda hududga qarab narxlar o'zgaradi va axoli uchun o'rtacha narx \$0,18 ni tashkil etadi. Suvga resurs sifatida haq to'lash ham ijobiy ahamiyatga egadir. Sanoat korxonalari sarflangan suv miqdoriga O'zbekiston Respublikasining Vazirligi, suv xo'jaliklari tomonidan belgilangan ta'riflarda haq to'laydilar.

Davlat rahbarinig joriy yil 19 fevral kuni energiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda 28 yanvarda elektr energetikasini rivojlantirish bo'yicha o'tgan yig'ilishda topshiriq berilgan edi.

Mamlakatimizda energiya quvvatlari aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining o'suvchan talabiga mos ravishda oshirib borilmoqda.

2035 yilga borib, elektr iste'moli hozirgidan 1,7 barobar oshishi hisob-kitob qilingan. Bu talabni to'liq qondirish uchun faqat ishlab chiqarish emas, tejamkorlik ham zarur. Xususan, o'tgan yili 50 milliard kub metr tabiiy gaz ta'minlandi, 81 milliard kilovatt soat elektr ishlab chiqarildi.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda 1 dollarlik yalpi ichki mahsulot yaratish uchun dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,5 barobar ko'p energiya sarflanayapti. Elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlar 14 foiz, tabiiy gazda esa 7 foizdan yuqori.

Shu bois olimlar jalb qilinib, joylarda energiyani tejash imkoniyatlari ilmiy asosda o'rganilmoqda. Hozirgacha 7 ta viloyatda 4,6 milliard kilovatt-soat elektr va 1 milliard kub metr gazni iqtisod qilish imkoniyatlari aniqlangan.

Taqdimotda shu kabi o'rganishlar asosida ishlab chiqilgan takliflar muhokama qilindi.

Misol uchun, suv xo'jaligidagi eski nasoslarni zamonaviysiga almashtirib, yiliga 1 milliard kilovatt-soat elektrni tejash mumkin. Ijtimoiy muassasalarda qozonxonalarni yangilash, "yashil" energiyadan foydalanish orqali bu yil 5 million kub metr gaz, 15 million kilovatt-soat elektrni iqtisod qilsa bo'ladi.

Umuman, bu yil 1,6 milliard kub metr gaz va 3,5 milliard kilovatt-soat elektrni tejash mo'ljallangan. Buning uchun har bir korxonaga va tashkilotga ilmiy asoslangan chora-tadbirlar yetkaziladi.

Jumladan, yirik sanoat korxonalarida bir mahsulot birligi ishlab chiqarishga ketadigan energiya me'yori belgilanadi. Shuning o'zidan energiya sarfi 5-10 foizga qisqaradi. Ijtimoiy ob'yektlarda energiya tejamkor uskunalarni o'rnatish bo'yicha manzilli dastur tasdiqlanadi.

Ko'p qavatli uylarda issiqlikni yaxshi saqlash uchun ularni izolyasiyalash kengaytiriladi. Xonadonlarda geliokollektor va quyosh paneli o'rnatishga arzon kreditlar beriladi. Iste'molchilar Yaponiya tajribasi asosida energiya tejash savodxonligi bo'yicha o'qitiladi.<sup>6</sup>

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ijtimoiy soha va uy-joylarda tejamkorlik muhimligini ta'kidladi. Hudud va tarmoqlar kesimida energiya isrofini kamaytirish, talon-torajliklarning oldini olish bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar berildi.

**Ilmiy yangiligi va ahamiyati.** Yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida hududning drayver tarmoqlarini rivojlantirish mavzusi so'nggi yillarda iqtisodiy va ekologik mutaxassislar orasida katta qiziqish uyg'otdi. Avvalgi tadqiqotlar, masalan, M. Porter va K. van der Linde tomonidan olib borilgan ishlar, yashil iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi rolini va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Ular, o'z navbatida, ekologik barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni birlashtirishda yangi yondashuvlar izlash zarurligini ta'kidladilar.

Bundan tashqari, BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida olib borilgan tadqiqotlar, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yashil iqtisodiyotning ahamiyatini oshirib, hududiy rivojlanish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishga chaqirdi. Bu tadqiqotlar, asosan, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan.

Yangi yondashuvlar sifatida, birinchi navbatda, "circular economy" (aylanma iqtisodiyot) tamoyillari ko'rib chiqilishi kerak. Bu yondashuv resurslarni maksimal darajada samarali ishlatish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashga qaratilgan. Shuningdek, "smart specialization" (aqlli ixtisoslashuv) strategiyalari, hududiy imkoniyatlarni hisobga olgan holda, dasturiy ta'minot va innovatsiyalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati, nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va yangi tadqiqotlar uchun yangi yo'nalishlar ochishdan iborat. Amaliy ahamiyati esa, hududiy

---

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati 19.02.2025-yil <https://president.uz/uz/lists/view/7894>

rivojlanish strategiyalarini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda namoyon bo'ladi. Yangi yondashuvlar bilan birgalikda, bu tadqiqotlar hududiy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda.

**Tadqiqot maqsadi va vazifalari.** Tadqiqotning asosiy maqsadi hududning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish, nafaqat iqtisodiy o'sishni, balki ekologik barqarorlikni va ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga ham yordam beradi. Yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish orqali, hududiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tadqiqot maqsadlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

**Hududning drayver tarmoqlarini aniqlash:** Bu vazifa doirasida, hududda mavjud bo'lgan va iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy tarmoqlarni belgilash zarur. Bunga qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar sektori va boshqa muhim sohalar kiradi.

**Yashil iqtisodiyot tamoyillarini tahlil qilish:** Yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillarini, jumladan, resurslardan samarali foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borish lozim.

**Strategiyalarni ishlab chiqish:** Hududning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish uchun yangi strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish yo'llarini aniqlash. Bu strategiyalar, ayniqsa, innovatsiyalar va texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bo'lishi kerak.

**Tahlil va baholash:** Yashil iqtisodiyotga asoslangan strategiyalarni joriy etishning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik ta'sirini baholash. Bu jarayon tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi.

**Tavsiya va takliflar berish:** Tadqiqot jarayonida olingan natijalar asosida, davlat va mahalliy hokimiyatlarga, shuningdek, xususiy sektorga tavsiyalar ishlab chiqish va takliflar taqdim etish.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali, tadqiqot hududiy rivojlanishning yangi yondashuvlarini ko'rsatishi, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirishi va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi kutilmoqda. Bu esa, nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir, chunki u hududiy siyosatni shakllantirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ko'maklashadi.

**Tadqiqot metodlari va yo'nalishlari.** Tadqiqot metodlari va yo'nalishlari, ilmiy izlanishning muvaffaqiyatli o'tishi uchun zaruriy asosni tashkil etadi. Ushbu tadqiqot "Hududning drayver tarmoqlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirish yo'llari" mavzusida olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotda qo'llaniladigan uslubiyat bir qator metodologik yondashuvlarni o'z ichiga oladi, jumladan, nazariy tahlil, empirik tadqiqot, so'rovnomalar va holat tadqiqotlari.

**1. Nazariy tahlil.** Nazariy tahlil, tadqiqotning dastlabki bosqichida, yashil iqtisodiyot tamoyillari va hududiy rivojlanish jarayonlari bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganishdan boshlanadi. Bu jarayon, avvalambor, mavjud nazariyalar, tushunchalar va metodologiyalarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. O'qib chiqilgan materiallar, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy kontekstda yashil iqtisodiyotning muhimligini ko'rsatadi. Ushbu tahlil, keyingi tadqiqotlar uchun nazariy asoslarni yaratadi va yangi yondashuvlarni ishlab chiqishda yordam beradi.

**2. Empirik tadqiqot.** Empirik tadqiqot, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bu jarayon tajribalar va kuzatuvlar orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida, hududiy drayver tarmoqlari bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar to'planadi. Ushbu ma'lumotlar, mahalliy va davlat idoralaridan, iqtisodiy va ekologik tashkilotlardan olingan hisobotlar, statistik ko'rsatkichlar va boshqa manbalardan yig'iladi. Maqsadli tadqiqotlar orqali, hududiy iqtisodiyotning holati, drayver tarmoqlarining rivojlanish darajasi va yashil iqtisodiyot tamoyillarining tatbiqi haqida aniq ma'lumotlar olish mumkin. Ushbu ma'lumotlar, tadqiqotning keyingi bosqichlarida qo'llaniladi.

**3. So'rovnoma.** So'rovnoma, tadqiqotda keng qamrovli ma'lumotlarni yig'ishning samarali usulidir. Ushbu usul yordamida, hududdagi iqtisodiy faoliyatga, yashil iqtisodiyot tamoyillariga va drayver tarmoqlariga oid fikr-mulohazalar to'planadi. So'rovnoma savollari, iqtisodiy subyektlar, biznes egalari, davlat idoralari va jamoatchilik vakillariga qaratilgan bo'ladi. So'rovnoma orqali olingan ma'lumotlar, statistika tahlili orqali qayta ishlanadi va natijalar tahlil etiladi. Bu jarayon orqali, yashil iqtisodiyotning hududiy iqtisodiyotga ta'siri, drayver tarmoqlarining rivojlanishida mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari aniqlandi.

**4. Holat tadqiqotlari.** Holat tadqiqotlari, muayyan hudud yoki tarmoqning misolida yashil iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish jarayonini chuqur o'rganish imkonini beradi. Ushbu metod, konkret misollarni tahlil qilish orqali, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'laydi. Holat tadqiqotlari, muvaffaqiyatli yashil iqtisodiyot strategiyalarini va ulardan

olingan tajribalarni o'rganish orqali, boshqa hududlar uchun foydali tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

**5. Statistika va iqtisodiy tahlil.** Tadqiqot davomida statistik va iqtisodiy tahlil usullari, olingan ma'lumotlarni qayta ishlashda qo'llaniladi. Ushbu jarayon, ma'lumotlar to'plami va natijalar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlashga yordam beradi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar, ekologik indikatorlar va ijtimoiy farovonlik darajasi o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish, tadqiqot natijalarini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

